

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIVVA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI  
HISOB VA AUDIT FAKULTETI**

**TOSHPO'LATOV MA'RUFJON**

**USTAV, QO'SHILGAN VA REZERV KAPITALI HISOBI VA AUDITI**

# **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar \_\_\_\_\_ k.o'q. P.X.Jumaev**

**TOSHKENT-2013**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I. BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA KORXONADA USTAV, QO'SHILGAN VA REZERV KAPITALNI HISOBGA OLIHNING NAZARIY ASOSLARI.....</b>	<b>6</b>
1.1. Korxonada ustav, qo'shilgan va rezerv kapitalini hisobga olishning ahamiyati .....	6
1.2. Korxonada ustav, qo'shilgan va rezerv kapitalining tarkibi va uni shakllantirish manbalari .....	11
1.3. Ustav, qo'shilgan va rezerv kapitalini buxgalteriya hisobida hisobga olish .....	19
<b>II. BOB. SHAHRISABZ "DON –XALQ RIZQI" OAJDA USTAV, QO'SHILGAN VA REZERV KAPITALI HISOBINI TASHKIL ETISH.....</b>	<b>31</b>
2.1. Shahrisabz "Don –xalq rizqi" OAJda ustav kapitali hisobini yuritish.....	31
2.2. Shahrisabz "Don –xalq rizqi" OAJda qo'shilgan va rezerv kapitalini hisobga olish xususiyatlari .....	37
<b>III. BOB. KORXONALARDA USTAV, QO'SHILGAN VA REZERV KAPITALI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....</b>	<b>39</b>
3.1. Shahrisabz "Don –xalq rizqi" OAJda ustav kapitali auditini o'tkazish.....	39
3.2. Ustav, qo'shilgan va rezerv kapitali auditini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish .....	55
<b>XULOSA .....</b>	<b>66</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>	<b>68</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Bozor munosabatlari sharoitida mavjud moddiy, moliyaviy va boshqa resurslardan oqilona va samarali foydalanish lozim. Raqobatga bardosh berish – bu rivojlanishning muhim omillaridan sanaladi. Ayniqsa, mulkchilik shakli turlicha bo'lgan korxonalarda xususiy kapital miqdorini ko'paytirish hamda undan samarali foydalanish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jumladan Prezidentimiz o'z nutqida “Iqtisodiyotimizda yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlarni yaqqol tasavvur qilish uchun quyidagi raqamlarni keltirib o'tmoqchiman. 2012 yilda O'zbekistonda, dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, 77,8 trln. sumlik YaIM ishlab chiqarilib, uning real o'sishi 2011yilga nisbatan 8,3 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiyotning yuqori o'sish sur'atlari:

- mamlakatni isloh qilish va modernizatsiyalash bo'yicha ishlab chiqilgan tadbiriy taraqqiyot dasturi va ichki talabni rag'batlantirishga doir chora - tadbirlarni izchil amalga oshirayotganligi;

- iqtisodiyotda soliq yukini pasaytirishga qaratilgan siyosatni olib borilayotganligi;

- mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rolini sezilarli darajada oshayotganligi;

- moliya-bank tizimining barqaror va samarali faoliyat ko'rsatayotganligi evaziga erishildi.

2012 yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmi 2011 yilga nisbatan 6,3 foizga oshdi va 41,7 trln. sumni tashkil etdi. Sanoatda ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlari farmatsevtika va mebelsozlik (o'sish sur'ati 18 foiz), mashinasozlik va avtomobilsozlik (12,2 foiz), qurilish materiallari (11,9 foiz) hamda neft-kimyó (9,4 foiz) sohalarida kuzatildi<sup>1</sup> –deb ta'kidladilar.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamlí islohatlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng

Bugungi kunda ayniqsa, bunday natijaga bevosita yurtboshimizning kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan dastur va chora - tadbirlari bevosita bog'liqdir. Zero, xususiylashtirish, davlat tasarrufidan chiqarish va aksiyadorlashtirish jarayonlari bozor iqtisodiyoti sharoitida vujudga kelgan va turli mulkchilikka asoslangan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning salohiyatini ularning xususiy kapitali ko'rsatkichi xarakterlaydi. Xususiy kapitalga u darajada ega bo'lmagan xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatini uzluksiz rivojlantira olmaydi va bozorda vujudga keladigan raqobatga bardosh berish qobiliyati sust bo'ladi. Shuning uchun ham xususiy kapitalga ega bo'lish, uni doimiy tarzda ko'paytirib borish bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday xo'jalik yurituvchi sub'ektning, shu jumladan aksionerlik jamiyatlarining rivojlanishiga kafillik beruvchi muhim element bo'lib hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari.** Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi xususiy kapital hisobini nazariy jihatdan keng yoritish, amaliy jihatidan hozirgi holatini o'rganish va ularni milliy va xalqaro buxgalteriya hisobi andozalari asosida yaxshilashdan iboratdir.

Ushbu maqsadan kelib chiqqan holda bitiruv malakaviy ishida quyidagi vazifalar belgilandi:

- korxonalarda xususiy kapitalning ahamiyatini o'rganish ;
- xususiy kapitalni hisobga olishning nazariy asoslarini o'rganish;
- korxonani asosiy faoliyatini tahlili, uning iqtisodiy ko'rsatkichlarini o'rganish;
- xususiy kapitalni hisobga olishni yaxshilash yo'llarini aniqlash;
- xususiy kapitalni ko'paytirish va undan samarali foydalanish yo'llarini yoritishdan iborat. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xususiy kapital hisobini takomillashtirish yo'llarini o'rganib chiqishdan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishining tadqiqot obekti va predmeti.** Tadqiqot obekti bo'lib, Shahrisabz "Don –xalq rizqi " OAJning buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlari hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti bo'lib, ustav, qo'shilgan va rezerv kapitali hisobining uslubiy asoslari, xususiy kapital hisobini yaxshilash yo'llarini aniqlash, hamda milliy va xalqaro tajribalari asosida bozor iqtisodiyotiga moslashtirish hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi.** Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- ustav, qo'shilgan va rezerv kapitali hisobini Shahrisabz "Don –xalq rizqi" OAJ misolida aniq o'rganish;

- ustav, qo'shilgan va rezerv kapitali hisobini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar berish;

- ustav, qo'shilgan va rezerv kapitali hisobini yaxshilash maqsadida buxgalteriya hisobining avtomatlashtirilgan shaklini qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 ta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning tarkibi uning maqsadi va yo'nalishlarini ifodalaydi.

# **I. BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA KORXONADA USTAV, QO'SHILGAN VA REZERV KAPITALNI HISOBGA OLIHNING NAZARIY ASOSLARI**

## **1.1. Korxonada ustav, qo'shilgan va rezerv kapitalni hisobga olishning ahamiyati**

Bozor iqtisodiyoti qaror topib, rivojlanib borish shartlaridan eng muhimi foyda olib ishlash hisoblanadi. Shu ma'noda har qanday iqtisodiy harakat natijasi albatta foydalilikni, manfaatlikni ta'minlashi kerak. Bugungi rejali bozor iqtisodiyotining asosiy jihati shundaki, sotsialistik tuzumdagi rejali iqtisodiyotda farqli o'laroq har bir iqtisodiy sub'yekt uchun keng imkoniyotlar ochib beradi.

Ma'muriy boshqarish yoki rejalashtirishda, xo'jalik faoliyatini tashkil qilish, boshqarishning shakl va uslublari tizimidagi tubdan o'zgarishlar asosida boshlangan bozor iqtisodiyotiga o'tib borish, iqtisodiy harakatga bo'lgan ishtiyoq va erkinlikni o'stirgan holda, aniq va o'z nomidan mulk va yutuqlar egasi sifatida chiquvchi harakat sub'yektlarini qaror topishiga imkon bermoqda. Eng katta yutug'imiz shuki, ayni paytda korxonalar to'la davlat tasarrufidan chiqarildi va turli mulkchilik shaklida faoliyat yuritayotgan korxonalarga aylantirildi. Erkin bozor munosabatlariga asoslangan sharoitda ishlab chiqarish, tijorat va tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish va yuritishdan eng asosiy maqsad yuqori natijaviylikga erishish hisoblanadi.

Xususiylashtirish, davlat tasarrufidan chiqarish va aksiyadorlashtirish jarayonlari bozor iqtisodiyoti sharoitida vujudga kelgan va turli mulkchilikka asoslangan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning salohiyatini ularning xususiy kapitali ko'rsatkichi xarakterlaydi. Xususiy kapitalga yetarli darajada ega bo'lmagan xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatini uzluksiz rivojlantira olmaydi va bozorda vujudga keladigan raqobatga bardosh berish qobiliyati sust bo'ladi. Shuning uchun ham xususiy kapitalga ega bo'lish, uni doimiy tarzda ko'paytirib borish bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday xo'jalik yurituvchi sub'ektning,

shu jumladan ma'suliyati cheklangan jamiyatlarning ham rivojlanishiga kafillik beruvchi muhim element bo'lib hisoblanadi.

Xususiy kapital hisobi hozirgi erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim ahamiyatga ega bo'lib, u korxonaning o'z qudrat darajasi qay darajada ekanligini bildiradi. Shu taraflarni e'tiborga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqiriq 6 – sessiyasida qabul qilingan “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi Qonunida ham xususiy kapital hisobiga katta e'tibor berilgan. Uning 16 – moddasiga ko'ra moliyaviy hisobotlar tarkibida 5 – shakl “Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot” deb nomlanib, bu shakl har yili boshqa hisobotlarga qo'shilgan holda yuqori organlarga topshirilishi lozim.


Ma'suliyati cheklangan jamiyatlarda ham boshqa mulk shaklidagi korxonalar singari buxgalteriya hisobining ob'ekti bo'lib, moliyaviy xo'jalik faoliyatini shakllantiruvchi aktivlar va majburiyatlar hisoblanadi. Lekin shu bilan birgalikda ma'suliyati cheklangan jamiyatlarida shu mulk shaklining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan va buxgalteriya hisobida inobatga olish shart bo'lgan ob'ektlar ham mavjud. Buxgalteriya hisobining shunday ob'ektlaridan biri korxonalar va tashkilotlarda mulkni tasarruf etish, boshqarish va unga egalik qilish usuli yordamida liberal iqtisodiy-ijtimoiy faoliyat ko'rsatishdir. Buxgalteriya hisobida bu jarayon o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bularga aksiya chiqarish va uning muomalasi bilan bog'liq operatsiyalar, xususiy (ustav) kapitali, qimmatli qog'ozlar, daromad (foyda), dividend to'lovlari, maxsus shakllanadigan fondlar va foydaning taqsimoti kabi jarayonlar kiradi. Bu jarayonlarning barchasi ma'suliyati cheklangan jamiyatlarda buxgalteriya hisobining o'ziga xos bo'lgan hisob ob'yektlardir.

Ushbu ob'yektlarni tadqiq qilishda buxgalteriya hisobining muhim fundamental tamoyillaridan biri bo'lgan ikki yoqlama yozuv tamoyiliga asoslaniladi. Buning zahirida quyidagi tenglik yotadi:

$$\mathbf{AKTIV = XUSUSIY KAPITAL + MAJBURIYATLAR}$$

Bu tenglikdan ko'rinib turibdiki, xususiy kapital har bir xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining mulkiy va moliyaviy holatini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2004 yil 15 yanvaridagi 5-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Moliyaviy hisobot"ning 5-shaklida xususiy kapitalning tuzilmasi quyidagilardan iboratdir deb ko'rsatilgan: ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda, xususiy kapital bilan qoplanmagan zarar.



**1-chizma. Xususiy kapitalning tashkil topish manbalari**

*Xususiy kapital* deganda, xo'jalik yurituvchi sub'ektga tegishli bo'lgan mulkning qiymati tushuniladi. Bu kapital jami kapital bilan qarzga olingan kapitalning o'rtasidagi farq sifatida aniqlanishi mumkin, ya'ni:

$$K_x = K_j - K_q$$

Bunda:

**$K_x$**  - xususiy kapital.

**$K_j$**  - jami kapital.

**$K_q$** -qarzga olingan kapital


Xususiy kapitalni buxgalteriya hisobida aks ettirish uchun ularni bir qancha belgilar bo'yicha tasniflashni taqozo qiladi. Aksariyat olimlar xususiy kapitalni tasniflash belgilari sifatida ularning turlarini, xizmat muddatlarini, tashkil etish manbalarini olish zarur deb hisoblaydilar.

Ularni tasniflashda moddiylik belgisini, turgan joyi, faoliyatda ishtirok etish darajasini ham e'tirof etish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari,



tasniflash belgilarining tartibini to'g'ri asoslash ham uni o'rganishda muhim omildir. Chunki, bu tizimni aniq belgilash xususiy kapital elementlarini bosqichma-bosqich birinchi, ikkinchi va uchinchi darajali schyotlarda aks ettirish, ular to'g'risidagi ma'lumotlarni umumiylikka qarab yig'ish, jamlash, to'plashning yaxlit tizimini yaratishga imkon beradi. Bu esa nazariy va metodologik jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.

Xususiy kapitalni tasniflashning tarkibiy tizimi quyidagi ketma – ketlikdan tashkil topishi lozim:



## **2 – chizma. Xususiy kapitalni tasniflashning tarkibiy tizimi**

Ushbu chizmaga ko'ra, xususiy kapitalni tasniflashning yuqori bo'g'inida uning moddiylik belgisi turadi. Ushbu belgisiga ko'ra, korxonalar va tashkilotlarning barcha xususiy kapitalini ikki guruhga, ya'ni moddiy xususiy kapital va nomoddiy xususiy kapitalga ajratish mumkin.

**Moddiy xususiy kapital** deganda, korxon va tashkilotlarining moddiy bo'lgan barcha aktivlari tushuniladi. Korxonalarining barcha moddiy xususiy kapitali barcha aktivlarning bir qismi sifatida buxgalteriya balansining «AKTIV» qismida joylashadi. Nomoddiy xususiy kapital o'z ifodasini nomoddiy aktivlarda topadi. Bu ham buxgalteriya balansining aktiv qismida joylashadi

**Xizmat muddati belgisi bo'yicha xususiy kapital** korxon va tashkilotlarda qancha muddatda iqtisodiy samara berishi, ya'ni foyda keltirish bilan tasniflanadi. Ushbu belgi bo'yicha barcha xususiy kapitalni uzoq muddatli va qisqa muddatli xususiy kapitalga ajratish mumkin. Xizmat muddati belgisi sifatida buxgalteriya hisobida, odatda, bir yillik muddat qabul qilingan. Ushbu muddatga ko'ra bir yildan ko'p xizmat qiladigan xususiy kapital uzoq muddatli, 1 yilgacha amal qiladigan xususiy kapital esa qisqa muddatli xususiy kapital hisoblanadi.

**Uzoq muddatli xususiy kapitalga** asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar (patent, litsenziya, turli huquqlar, yangi g'oyalar va boshqalar) va bir yildan kam bo'lmagan muddatga qo'yilgan qo'yilmalar kiradi. Qisqa muddatli xususiy kapitalni adabiyotlarda (shu jumladan, 2004 yil 1 yanvardan qo'llanilib kelinayotgan buxgalteriya balansida) «aylanma aktivlar» deb ham ataydilar. Ularga ishlab chiqarish zaxiralari, tovar moddiy boyliklar, pul mablag'lari va boshqalar kiradi.

**Faoliyatda ishtirok etish darajasiga ko'ra** barcha xususiy kapitallar faol va faol bo'lmagan xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Odatda, aylamna mablag'lar, asosiy vositalarning faol qismi (mashina va mexanizmlar) korxon faoliyatida faol ishtirok etadi va ko'proq foyda keltiradi. Hisob-kitoblar bo'yicha boshqa mijozlarda bo'lgan xususiy kapital, ya'ni Debetorlik qarzlari korxon faoliyatining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

**Turgan joyiga ko'ra xususiy kapital** ekspluatatsiyadagi, ya'ni foydalanishdagi va zaxiradagi (konservatsiya qilingan) xususiy kapitalga bo'linadi. Foydalanishdagi kapital - bu korxon va tashkilotlarning moliyaviy -

xo'jalik faoliyatini yuritishda qatnashayotgan kapitaldir. Zaxiradagi kapital esa vaqtinchalik qurilishi tugatilmagan binolar, sexlar, ishlab chiqarishga mo'ljallanib sotib olingan, lekin mablag' yetishmasligi sababli vaqtincha omborda turib qolgan uskuna va jihozlardan iboratdir.

*Turi va ko'rinish belgisiga ko'ra xususiy kapital* real moddiy-tovar boyliklaridan iborat bo'ladi, ya'ni u, bino, inshootlar, materiallar, tayyor mahsulotlar, tovarlar, pul mablag'lari va boshqalar hisobiga shakllanadi. Bular ham buxgalteriya balansida o'z aksini topgan.

Korxonalar, tashkilot, turli jamiyatlarning xususiy kapitali, asosan, quyidagi manbalar hisobidan shakllanishini kuzatish mumkin, ya'ni: mulk egalari mablag'laridan, ta'sischi ulushidan, faoliyatdan olingan foydadan, qaytarib bermaslik sharti bilan olingan mablag'lardan va hokazolardan.

## **1.2. Korxonalar ustavi, qo'shilgan va rezerv kapitalining tarkibi va uni shakllantirish manbalari**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi tashkil etilayotgan korxonalar o'z moliyaviy va moddiy resurslarini mustaqil shakllantiradi. Bunday resurslar, odatda, korxonalar ta'sischi tomonidan o'z xususiy mulklarini ustavi kapitaliga ulushi sifatida qo'shish bilan yaratiladi.

**Ustavi kapitali** - huquqlar va imtiyozlar olish uchun korxonalar muassislari tomonidan ta'sis hujjatlariga muvofiq qo'shilgan (to'langan) hamda korxonaning xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklar, pul mablag'lari va xarajatlar majmuidir.


Ustavi kapitalining xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

- Ustavi kapitalining miqdori korxonalar ustavi va ta'sis shartnomasiga muvofiq belgilanadi va nisbatan doimiy harakterga ega bo'ladi. Uning birlamchi miqdorini o'zgarishi faqat korxonalar ustavini davlat qaydnomasidan qayta o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi;

•Ustav kapitalini haqiqatda shakllantirish vaqt bo‘yicha chegeralanadi. O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, korxonalar ustav kapitalini shakllantirishning oxirgi muddati bo‘lib ta’ sis etilgan sanadan boshlab bir yil;

•Ustav kapitaliga ta’ sischilarning hissalarini uzoq va qisqa muddatli aktivlar bilan, ya’ ni asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, kapital va moliyaviy investitsiyalar, tovar-moddiy boyliklar va pul mablag‘ lari bilan kiritilishi mumkin;

•Ta’ sischilarning ustav kapitalidagi hissalarini korxonaning sof foydasini hissali usulda taqsimlashga, aksiyalarning soni esa sof foydani ularning har biriga mos ravishda taqsimlashga asos bo‘lib hisoblanadi. Davlat korxonalarida sof foyda taqsimlanmaydi va ustav kapitalining miqdorini oshirishga yo‘ naltiriladi.



**3-chizma. Xususiy kapitalning shakllanish manbalari**

Ustav kapitali korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakllariga va mulk shakllariga bog‘liqdir. Davlat korxonalarida ustav kapitali unga davlat tomonidan birkutilgan mulklar majmuasidan tashkil topadi. Xususiy mulkchilik asosida tashkil etilgan korxonalarda ustav kapitali ta’sischilarning pay va badallaridan iborat bo‘ladi. Aksionerlik jamiyatlarida ustav kapitali chiqarilgan oddiy va imtiyozli aksiyalarning nominal qiymatidagi summalarining yig‘indisidan tashkil topadi.

Korxonada ustav kapitali uning ustavi va ta’sis shartnomasiga muvofiq qoidaga ko‘ra, ta’sischilarning hissalarini hisobiga barpo etiladi. U korxonaning xo‘jalik faoliyatidan olinadigan foydasi hisobiga, zarur bo‘lganda ta’sischilarning maqsadli badallari hisobiga ham to‘ldirilishi mumkin.

Korxonada ustav kapitaliga hissa sifatida binolar, inshootlar, qurilmalar va boshqa moddiy qiymatliklar: yer, suv va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari, shuningdek, boshqa mulkiy huquqlar (shu jumladan, kashfiyotlardan foydalanish uchun, «nou-xau» va boshqa nomoddiy aktivlar); qo‘shma korxonada ishtirokchi davlatlarining valyutalaridagi erkin ayirboshlanadigan valyutalarda pul mablag‘lari qo‘shilishi mumkin. Korxonada, tashkilotlar, birlashmalar, aksiyadorlik jamiyatlari va ma’suliyati cheklangan jamiyatlar ustav kapitaliga chet el valyutasida qo‘shiladigan ulushlar «Chet el valyutasida amalga oshiriladigan muomalalarni buxgalteriya hisobi, statistik va boshqa hisobotlarda aks ettirish tartibi to‘g‘risida»<sup>2</sup>gi Qonun talablariga muvofiq amalga oshiriladi

Ustav kapitalini tashkil qilish amaldagi qonunlar va ta’sis hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

Ustav kapitaliga hissa shaklida qo‘shiladigan moddiy va nomoddiy aktivlar ta’sischilar kelishuviga yoki yuridik shaxs ijroiya organining qaroriga ko‘ra baholanadi va hisobga olinadi.

Barcha mulk shakllaridagi korxonalarda kapital rezervlar va taqsimlanmagan foyda bo‘yicha buxgalteriya hisobining vazifalari quyidagilardan iborat:

---

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 3 iyun 2000 yilda №931 bilan ro‘yxatga olingan.

- Ustav kapitalini shakllanishi va ulardan foydalanishni nazorat qilish;
- Korxonalar muassislari, kapitalining shakllanish bosqichlari va aksiyalar turlari bo'yicha axborot to'plash;
- Ustav kapitalining holati va harakati xususida hisobot tuzish bo'yicha ma'lumotlar olishni ta'minlash;
- Qo'shilgan kapital hamda rezerv kapitalining shakllanishi bilan bog'liq muomalalarni o'z vaqtida hisobda aks ettirish;
- Korxonalar sof foydasining shakllanishi va uning taqsimlanishini o'z vaqtida hisobga olish hamda nazorat qilish.

Bugungi kunda respublikamizda turli mulkchilik shaklidagi korxonalar o'z faoliyatlarini amalga oshirib kelmoqda. Bularga davlat mulki shaklidagi, aksiyadorlik jamiyati shaklidagi, ma'suliyati cheklangan jamiyat shaklidagi, qo'shma korxonalar shaklidagi va boshqa korxonalar kiradi.

Davlat korxonasining ustav kapitali - davlat tomonidan korxonaning doimiy tasarrufiga tekinga berilgan moddiy resurslar va pul mablag'lari summasidir. Ustav kapitali hisobiga asosiy va aylama mablag'lar shakllanadi. Korxonaga asosiy vosita mavjud ishlab chiqarish hajmiga va ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish ob'ektlariga qarab, aylama mablag'lar esa normativlar asosida beriladi. Normativ yuqori tashkilot tomonidan belgilanadi, ammo ularni taqsimlashni korxonaning o'zi mustaqil amalga oshiradi.

Amaldagi tartibga ko'ra korxonalar ustav kapitali miqdori uning ta'sis hujjatlarida qayd etilgan miqdoriga muvofiq bo'lishi kerak. Davlat korxonalari uchun yuqori turgan tashkilotning korxonani tashkil etish va uning balansiga ustav kapitalini o'tkazish to'g'risidagi buyrug'i ta'sis hujjati hisoblanadi.

Ba'zi hollarda davlat korxonasining ustav kapitali hajmi o'zgarishi mumkin. Ustav kapitali miqdorini faqatgina yuqori tashkilot o'zgartirishi mumkin.

Aksiyadorlik jamiyati ustav kapitali uning aksiyadorlari sotib oladigan aksiyalarining nominal qiymatidan iborat bo'ladi. Bunda chiqariladigan jami aksiyalarning nominal qiymati bir xil bo'lishi mumkin. "Aksiyadorlik jamiyatlari

va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlari (OAJ) ustav kapitalining eng kam miqdori jamiyat ro'yxatdan o'tkazilgan paytda qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan to'rt yuz ming AQSh dollar miqdordan kam bo'lmasligi, yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlari (YAJ) ustav kapitali esa jamiyat ro'yxatdan o'tkazilgan paytda qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan bir yuz ellik ming AQSh dollar miqdordan kam bo'lmasligi kerak<sup>3</sup>.

Aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitali miqdori ko'payishi yoki kamayishi mumkin. “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 21-moddasiga muvofiq “Jamiyatning ustav fondi aksiyalar nominal qiymatini oshirish yoki qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin”.

Aksiyadorlik jamiyati ustav kapitalini kamaytirish favqulodda hollarda yuz beradi va uni ko'paytirishdagi singari tartibda amalga oshiriladi. Ustav kapitali miqdorining kamayishi aksiyalar umumiy sonining qisqarishi bilan bog'liq bo'ladi. Shu jumladan, jamiyatning o'zi haqini keyinchalik to'lash bilan aksiyalami sotib olishi ham shu hisobga kiradi.

Amaldagi qonunlarga binoan aksiyadorlik jamiyati ustav kapitaliga hissa tariqasida pul bilan baholanadigan va ta'sischi tomonidan jamiyat aksiyalari haqini to'lash uchun kiritiladigan moddiy boylik, mulkiy yoki o'zga huquqlarni to'lashlari mumkin. Jamiyat ta'sis etilayotganda uning aksiyalari pulini to'lash shakllari jamiyatni tashkil etish to'g'risidagi shartnoma yoki jamiyat ustavida, qo'shimcha aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar pulini to'lash ularni joylashtirish to'g'risidagi qarorda ko'rsatiladi.

Aksiyador ta'sis yig'ilishi belgilangan muddatlarda, ammo jamiyat ro'yxatdan o'tgandan keyin bir yildan kechikmay aksiyalarning to'liq pulini to'lashi kerak. Aksiyalarni sotib olish muddati o'tganidan keyin aksiyadorlar jamiyati ularni o'z ixtiyoriga qarab sotishga haqli.

---

<sup>3</sup> «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 20-moddasi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi IV–bob, 62–moddasiga muvofiq, mas'uliyati cheklangan jamiyat deb bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdorlardagi ulushlarga bo'lingan jamiyat tan olinadi. Bunday jamiyat ustav kapitalidagi bo'lingan hissalar miqdori ta'sis hujjatlarida belgilab qo'yiladi. Uning ishtirokchilari majburiyatlar bo'yicha faqat o'z mulki doirasida javob beradi.

Ma'suliyati cheklangan jamiyatning ustav kapitali faqat muassislarning hissalarini hisobiga tashkil topadi va uning ko'payishi yoki kamayishi hammaning roziligi bilan hissa qo'shuvchilarning ko'payishi yoki kamayishi bilan yuz berishi mumkin.

Jamiyat ishtirokchisi o'z hissasini jamiyat ro'yxatga olingan sanadan keyin bir yil davomida to'lashi lozim.

Amaldagi qonunchilikka binoan korxonalar, tashkilot va jamiyatlarda rezerv kapitali tashkil etiladi. Uning miqdori jamiyat ustav kapitalining 20 foizidan kam bo'lmasligi kerak. Rezerv kapitali har yili sof foydadan ajratmalar o'tkazish yo'li bilan jamiyat ustavida belgilangan miqdorga yetguncha tashkil etiladi. Rezerv kapitali korxonalar ko'rgan zararini qoplash, imtiyozli aksiyalar uchun dividend to'lash, aksiyadorlar talabiga ko'ra aksiyalarni qayta sotib olish uchun ishlatiladi. Shu bilan birgalikda rezerv kapitali hisobvaraqlari uzoq muddatli aktivlarni qayta baholashda yuzaga keladigan inflyatsion rezervlarga muvofiq foyda hisobidan tashkil qilinadigan rezerv hisobi uchun mo'ljallangan.

Amaldagi qonunchilikka binoan bepul olingan mol-mulk qiymati foyda solig'i bazasini oshiradi. Bepul olingan mol-mulk ekspert yo'li bilan yoki o'tkazma hujjatlar asosida aniqlangan adolatli qiymat bo'yicha hisobda aks ettiriladi.

**Qo'shilgan kapital** - aksiyalarni nominal qiymatidan yuqori bo'lgan narxlar bo'yicha birinchi bor sotilishida vujudga kelgan emissiya daromadi va Ustav kapitalini shakllantirishdagi kurs farqlarini hisobga olish uchun mo'ljallangan.



Sotib olingan xususiy aksiyalarni jamiyat o'z balansida ushlab turishi yoki ularni jamg'arma bozorida qaytadan sotishi mumkin. Aksiya egalari qarori bilan ustav kapitali sotib olingan xususiy aksiyalar summasiga kamaytirilishi, aksiyalarning o'zi esa bekor qilinishi mumkin. Lekin, O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq bunday aksiyalar hisobda bir yildan ortiq bo'lgan muddatda ushlab turilishi mumkin emas.

**Taqsimlanmagan foyda** – foydaning jamg'arilayotganini ifodalaydi va mulkdorlarning qaroriga binoan ustav kapitaliga qo'shilishi mumkin.

Xo'jalik yurituvchi sub'yektning barcha yillar bo'yicha faoliyati va hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda yoki qoplanmagan zarar summasi bir – biridan farq qiladi.

Foydani taqsimlash to'g'risidagi qarorni xo'jalik yurituvchi sub'yektning mulkdorlari (aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, MCHJ ishtirokshilarining yig'ilishi, xususiy korxonada egasining qarori) qabul qiladi.

Taqsimlanmagan foyda quyidagilarga ishlatilishi mumkin:

- Ustav kapitalini ko'paytirishga;
- Rezerv kapitalini yaratish va to'ldirishga;
- Aksionerlarga dividend to'lashga;
- Zararlarni qoplashga;
- Mulkdorlarning qarori bo'yicha boshqa maqsadlarga.

Aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanishi lozim bo'lgan majburiy to'lovlar va barcha soliqlar to'langandan keyin korxonada qoladigan foydaning bir qismi dividend hisoblanadi.

Odatda, dividendlar hisobot yili yakunlari bo'yicha hisoblanadi. Biroq aksiyadorlik jamiyatlari har chorakda va yarim yilda bir marta, agar bu jamiyat ustavida taqiqlanmagan bo'lsa, joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli. Yillik dividendlarni to'lash sanasi aksiyadorlik jamiyati ustavida yoki aksiyadorlar yig'ilishi qarori bilan belgilanadi.

Korxonalar rahbariyati tomonidan dividendlarni to'lash e'lon qilinganidan so'ng, agar ular kelasi yil uchun to'lanadigan bo'lsa, joriy majburiyatlar sifatida hisobda aks ettiriladi.

**Grantlar, subsidiyalar va beg'araz yordamlarni** hisobga olish 1998-yil 3-dekabrda Adliya Vazirligi tomonidan 562-raqam bilan tasdiqlangan "Davlat subsidiyalari hisobi va davlat yordamini izohlash" nomli 10-son BHMS bilan tartibga solinadi.

• **Grantlar** deganda ijtimoiy xususiyatga ega maqsadlar, iqtisodiyotni rivojlantirish, ilmiy-texnik va innovatsion dasturlarni bajarish uchun Hukumat, nodavlat, xorijiy hamda xalqaro tashkilotlar va jamg'armalar tomonidan ko'rsatiladigan tekin, gumanitar yoki moddiy-texnik mablag'lar tushuniladi.

• **Subsiyalar** – bu korxonaga uning faoliyatini rivojlantirish maqsadida ma'lum bir shartlarga ko'ra davlat tomonidan pul va moddiy aktivlar bilan berilgan yordam summasi. Shu bilan birgalikda subsidiya va grantlar turli nodavlat, xalqaro tashkilotlar va jamg'armalar tomonidan muhim dasturlarni amalga oshirish uchun korxonalar tomonidan taqdim etilishi mumkin.

• **A'zolik badallari** – bu jamiyatning ta'sis hujjatlariga muvofiq belgilangan a'zolik badallari summasi. Yig'ilgan a'zolik badallari jamiyatning faoliyatini rivojlantirishga sarflanadi. Jamiyat tugatilganda to'plangan a'zolik badallari uning qarzlari qoplashga yo'naltiriladi.

• **Maqsadli foydalanish uchun soliq imtiyozlari**- bu davlat qonunlari asosida korxonani maqsadli vazifalarni bajarish uchun soliqlardan ozod etish natijasida to'plangan mablag'lar majmuasi. Ushbu maqsadli tushumlarning hisobi maxsus Nizomga, shuningdek 21-son BHMS ga muvofiq yuritiladi.

• **"Kelgusi davr xarajatlari va to'lovlar rezerv"** hisobvarag'i bir maromda xarajat va to'lovlarani ishlab chiqarish yoki muomala xarajatlari kiritish yo'li bilan belgilangan tartibda rezerv qilingan summalar holati va harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni jamlash uchun qo'llaniladi. Xususan, ushbu hisobvaraqda asosiy vositalarni ta'mirlash bo'yicha kelgusi xarajatlarni summasini aks ettirish mumkin.

Xarajatlarga qo'shiladigan summalarni rezervlash qonun hujjatlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomi bilan tartibga solinadi.

Buxgalteriya Hisobi Xalqaro Standartlariga muvofiq bunday rezervni tashkil qilish tavsiya qilinmaydi. Chunki korxonani tashkil etishda o'z hisobotida amalga oshirilmagan xarajatlarni aks ettiradi va foydani kamaytiradi.

Tijorat korxonalarini, agar hisob siyosatida bu aks ettirilgan bo'lsa, faqat sof foyda hisobiga rezerv tashkil etishlari mumkin. Ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun rezervedan foydalanishda soliq solinadigan baza mazkur xarajatlarning summasiga kamaytiriladi. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobiga rezerv tashkil qilish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda, asosan mavsumiy ishlaydigan korxonalar uchun ruxsat etiladi.

### **1.3. Ustav, qo'shilgan va rezerv kapitalni buxgalteriya hisobida hisobga olish**

Korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritishning asosiy maqsadi - xo'jalik sub'ektlarining barcha xo'jalik muomalalarini rasmiy ravishda hisobda aks ettirish va ma'lum bir davrlarda foydalanuvchilarga zaruriy ma'lumotlarni berish hisoblanadi. Shu bilan birga, korxonaning xususiy kapitali harakati, o'zgarishi va tarkibini buxgalteriya hisobida hisobga olish, uni moliyaviy hisobotda aniq va to'liq aks ettirish xo'jalik yurituvchi sub'yekt uchun iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun muhimdir. Korxonalar xususiy kapitalining muhim turi bo'lib ustav kapitali hisoblanadi.

Ustav kapitali bo'yicha buxgalteriya hisobining asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- ✓ Ustav kapitalini korxonalarining ta'sis etilgan kuniga aks ettirish;
- ✓ Ta'sischi tomonidan o'z ulushlarini belgilangan muddatlarda kiritilishi ustidan nazorat o'rnatish;

- ✓ Ustav kapitalidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida va to'g'ri hisobga olish;
- ✓ Chet el investorlari tomonidan chet el valyutasida kiritilgan mablag'lar bo'yicha valyuta kurslari o'rtasidagi farqlarni to'g'ri hisobga olish;
- ✓ Ta'sischilar bilan olinadigan dividendlar va ularning hissalarini bo'yicha hisob-kitoblarni to'g'ri olib borish;
- ✓ Ustav kapitaliga doir ma'lumotlarni moliyaviy hisobotlarda to'g'ri aks ettirish va boshqalar.

21- son BHMS ga muvofiq ustav kapitalining hisobi quyidagi schyotlarda olib boriladi:

- ❖ **8310** “Oddiy aksiyalar”,
- ❖ **8320** “Imtiyozli aksiyalar” –aksionerlik jamiyatlarida
- ❖ **8330** “Pay va badallar” – xususiy korxonalarda (xususiy savdo va ishlab chiqarish korxonalarida, ma'suliyati cheklangan jamiyatlarda, qo'shma korxonalarda, xorijiy korxonalarda, sho'ba korxonalarida, qaram xo'jalik jamiyatlarida).

Ushbu schyotlarning barchasi passiv schyotlar bo'lib, ularning kreditida ustav kapitalini vujudga kelishi va ko'payishi, debetida esa uning kamayishi aks ettiriladi.

**Debet** 4610 “ Ta'sischilarning ustav kapitaliga hissalarini bo'yicha qarzi”

**Kredit** 8300 “Ustav kapitali”, 8310 “Oddiy aksiyalar”, 8320 “Imtiyozli aksiyalar”, 8330 “Pay va badallar”.

Davlat korxonalarini asosida tashkil qilingan aksionerlik jamiyatlarida oldingi mavjud ustav kapitali va yangi ustav kapitali o'rtasidagi farq **gudvill** deb atalib, nomoddiy aktiv sifatida hisobga olinadi va quyidagicha aks ettiriladi:

**Debet** 0480 “Gudvill”

**Kredit** 8310 “Oddiy aksiyalar”, 8320 “Imtiyozli aksiyalar”

Keyingi davrlarda korxonalarining ustav kapitalini ko'payishi ta'sischilar safini kengayishi yoki oldingi ta'sischilarning hissalarini oshirilishi, aksionerlik jamiyatlarida esa yangi aksiyalarning chiqarilishi yoki oldingi

aksiyalarning nominal qiymati oshirilishi evaziga yuz beradi. Ustav kapitalining bunday yo‘llar bilan ko‘payishi ham yuqorida keltirilgan birinchi yozuv bilan hisobga olinadi. Davlat korxonalarida ustav kapitalini hisobot yilning sof foydasi evaziga ko‘payishi quyidagi yozuv bilan aks ettiriladi:

**Debet** 8710 “Hisobot yilning taqsimlanmagan foydasi(qoplanmagan zarari)”

**Kredit** 8300 “Ustav kapitali”

Ustav kapitalining kamayishi ta’sischilarning hissalarini kamaytirilishi yoki ularni ta’sischilar safidan chiqarilishi, aksionerlik jamiyatlarida esa mavjud aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirilishi yoki aksiyalar sonini kamayishi evaziga yuz beradi. Davlat korxonalarida ustav kapitali summasi hisobot yilning qoplanmay qolingan zararlariga kamayadi.

Ustav kapitalini kamayishi hisobda quyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi:

1) Ta’sischilarning hissalarini kamaytirilganda yoki ayrim ta’sischilar o‘z hissalarini bilan ta’sischilar qatoridan chiqib ketganda:

**Debet** 8330 “Pay va badallar”.

**Kredit** 6620 “Chiqib ketgan ta’sischilarga ularning hissalarini bo‘yicha qarzi”

2) Aksiyalarning nominal qiymatini pasaytirilganda yoki aksiyalar sonini kamaytirilganda:

**Debet** 8310 “Oddiy aksiyalar», 8320 «Imtiyozli aksiyalar”

**Kredit** 6620 “Chiqib ketgan ta’sischilarga ularning hissalarini bo‘yicha qarzi”

3) Davlat korxonalarida hisobot yilning zararlarini qoplanganda

**Debet** 8300 “Ustav kapitali”

**Kredit** 8710 “Hisobot yilning taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)”

Ustav kapitalining analitik hisobi korxonada ta’sischilar va aksionerlari bo‘yicha yuritiladi.

Aksionerlik jamiyatlari va aksiya chiqargan ma'suliyati cheklangan jamiyatlar o'zlarining xususiy aksiyalarini qayta sotish yoki ularni bekor qilish uchun qayta sotib olishlari mumkin. Sotib olingan bunday xususiy aksiyalarning hisobi

- 8610 "Sotib olingan xususiy oddiy aksiyalar"

- 8620 "Sotib olingan xususiy imtiyozli aksiyalar" schyotlarida yuritiladi.

Ushbu schyotlar mos ravishdagi 8310 "Oddiy aksiyalar" va 8320 "Imtiyozli aksiyalar" schyotlariga kontrpassiv schyotlar bo'lib hisoblanadi, ya'ni ushbu schyotlarning summalari balansda alohida qatorda oldiga manfiy (-) belgini qo'yish yoki qizil rang bilan yozish orqali aks ettiriladi. Demak, xususiy kapitalning balans qiymatini topishda hamma vaqt sotib olingan xususiy aksiyalarning qiymati, agar ular mavjud bo'lsa, chegirib tashlanadi.

Sotib olingan xususiy aksiyalar sotib olish vaqtida sotib olingan qiymatida quyidagicha aks ettiriladi:

**Debet** 8610 "Sotib olingan xususiy oddiy aksiyalar" va 8620 «Sotib olingan xususiy imtiyozli aksiyalar»

**Kredit** 5010 "Kassa", 5110 "Hisob-kitob schyoti", 6620 "Chiqib ketgan ta'sischi'larga ularning hissasi bo'yicha qarz" .

Keyingi davrlarda sotib olingan aksiyalar qayta sotilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Sotib olish qiymatidan yuqori qiymatga qayta sotilgan aksiyalarga quyidagi yozuvlar qilinadi:

- 1) Sotib olish qiymatiga

**Debet** 5010 "Kassa", 5110 "Hisob-kitob schyoti"

**Kredit** 8610 "Sotib olingan xususiy oddiy aksiyalar" va 8620 "Sotib olingan xususiy imtiyozli aksiyalar"

- 2) Sotib olish qiymatidan ortiq qismiga

**Debet** 5010 "Kassa", 5110 "Hisob-kitob schyoti"

**Kredit** 9590 "Moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar"

Sotib olish qiymatidan past qiymatga qayta sotilgan aksiyalarga quyidagi yozuvlar qilinadi:

1) Sotib olish qiymatiga

**Debet** 5010 “Kassa”, 5110 “Hisob-kitob schyoti”

**Kredit** 8610 “Sotib olingan xususiy oddiy aksiyalar” va 8620 “Sotib olingan xususiy imtiyozli aksiyalar”

2) Sotib olish qiymatidan kam qismiga

**Debet** 9690 “Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa harajatlar”

**Kredit** 8610 “Sotib olingan xususiy oddiy aksiyalar” va 8620 “Sotib olingan xususiy imtiyozli aksiyalar”

Nominal qiymatidan yuqori qiymatga sotib olingan aksiyalar bekor qilinganda quyidagi yozuvlar qilinadi:

1) Sotib olish qiymatiga

**Debet** 8310 “Oddiy aksiyalar”, 8320 “Imtiyozli aksiyalar”

**Kredit** 8610 “Sotib olingan xususiy oddiy aksiyalar” va 8620 “Sotib olingan xususiy imtiyozli aksiyalar”

2) Sotib olish qiymatidan ortiq qismiga

**Debet** 9690 “Moliyaviy faoliyat bo‘yicha harajatlar”, 8410 “Emission daromad”

**Kredit** 8610 “Sotib olingan xususiy oddiy aksiyalar” va 8620 “Sotib olingan xususiy imtiyozli aksiyalar”.

Sotib olish qiymatidan past qiymatga qayta sotib olingan aksiyalar bekor qilinganda quyidagi yozuvlar qilinadi:

1) Sotib olish qiymatiga

**Debet** 8310 “Oddiy aksiyalar”, 8320 “Imtiyozli aksiyalar”

**Kredit** 8610 “Sotib olingan xususiy oddiy aksiyalar” va 8620 “Sotib olingan xususiy imtiyozli aksiyalar”

2) Sotib olish qiymatidan kam qismiga

**Debet** 8310 “Oddiy aksiyalar”, 8320 “Imtiyozli aksiyalar”

**Kredit** 9590 “Moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar”

Hususiy kapitalning tarkibiy elementi bo‘lgan qo‘shilgan kapital quyidagi ikkita holatda vujudga kelishi mumkin:

**•Korxonada aksiyalari nominal qiymatidan yuqori qiymatga sotilganda.**

Ushbu holatda sotish va nominal qiymatlar o'rtasida vujudga kelgan farq emissiya daromadi deb ataladi. Ushbu daromad qo'shilgan kapitalni tashkil etadi va maxsus 8410 "Emission daromad" schyotining kreditida pul mablag'lari schyotlarining (5010,5110 va boshqalar) debeti bilan korrespondensiyalangan holda aks ettiriladi. Emission daromad korxonalarining soliqqa tortiladigan daromadiga kiritilmaydi. Kelgusida emission daromad aksiyalarni nominal qiymatidan past qiymatda sotishdan ko'rilgan zararlarni, shuningdek sotib olingan xususiy aksiyalarini bekor qilishdan ko'rilgan zararlarni qoplash uchun ishlatiladi. Bunda quyidagicha buxgalteriya yozuvlari aks ettiriladi:

**Debet** 8410 "Emission daromad",

**Kredit** 8610 "Sotib olingan oddiy xususiy aksiyalar", 8620 "Sotib olingan imtiyozli xususiy aksiyalar". Emission daromad sifatida to'planib qolgan qo'shilgan kapital faqatgina korxonada tugatilishida taqsimlanmagan foydaga qo'shiladi va ta'sischi o'rtasida taqsimlanadi.

**•Ustav kapitalini shakllantirish davrida valyuta kursalari o'rtasida farq vujudga kelganda.** Bunday qo'shilgan kapital, odatda, chet el investitsiyasi kiritilgan qo'shma korxonalarda mavjud bo'lishi mumkin. Ustav va ta'sis shartnomasiga muvofiq chet el investorining qo'shma korxonaning ustav kapitaliga hissasi korxonaning davlat ro'yxatidan o'tgan sanasidagi rasmiy kurs bilan baholanadi. Shuning uchun chet el investori tomonidan hissani haqiqatda kiritilishi vaqtida vujudga kelgan valyuta kurslari o'rtasidagi ijobiy va salbiy farqlar ustav kapitaliga tegishli bo'lmaydi va ular qo'shma korxonada alohida 8420 "Ustav kapitalini shakllantirishda vujudga kelgan kurslar o'rtasidagi farq" schyotida hisobga olinadi. Valyuta kurslari o'rtasida vujudga kelgan ijobiy farq, bir tomondan, investorning hissasi sifatida kiritilgan uzoq va qisqa muddatli aktivlarning ( asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, TMZ, pul mablag'lari) qiymatiga qo'shiladi (ya'ni 0110-0190, 0410-0490, 1010-1090,2810,2910-2990,5010,5110,5210,5210 va boshqa schyotlar debetlanadi),



ikkinchi tomondan, qo‘shilgan kapital sifatida tan olinadi va 8420 “Ustav kapitalini shakllantirishda vujudga kelgan kurslar o‘rtasidagi farq” schyotining kreditida aks ettiriladi. Xuddi emission daromadga o‘xshab, valyo‘ta kurslari o‘rtasidagi ijobiy farqlar evaziga vujudga kelgan ushbu qo‘shilgan kapital ham soliqqa tortiladigan daromadga kiritilmaydi, u faqatgina korxonaga tugatilishida taqsimlanmagan foydaga qo‘shiladi va ta‘sischilar o‘rtasida taqsimlanadi.

- **Valyuta kurslari o‘rtasida salbiy farq vujudga kelsa:**

**Debet** 8420 “Ustav kapitalini shakllantirishda vujudga kelgan kurslar o‘rtasidagi farq”

**Kredit** 4610 “Ta‘sischilarning ustav kapitaliga hissalarini bo‘yicha qarzi” schyotida aks ettiriladi.

Kurslar o‘rtasidagi vujudga kelgan salbiy farq korxonaning zarariga olib boriladi va uning umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foydasidan qoplanadi.

Bunda:

**Debet** 9620 “Valyo‘ta kurslari farqida ko‘rilgan zararlar” aks ettiriladi.

**Kredit** 8420 “Ustav kapitalini shakllantirishda vujudga kelgan kurslar o‘rtasidagi farq”

Qo‘shilgan kapitalning analitik hisobi ta‘sischilar va aksiyalarning turlari bo‘yicha olib boriladi.

**Rezerv kapitali** asosan quyidagi manbalar hisobidan vujudga keladi:

• **Mavjud mulkni qayta baholash natijasida paydo bo‘ladigan yangi qiymat evaziga.** Tasdiqlangan Nizomga ko‘ra korxonalar har yilning oxirida o‘zlarining asosiy vositalarini, tugallanmagan qurilish ob‘ektlarini qayta baholaydilar. Qayta baholashda asosiy vositalarning oldingi boshlang‘ich qiymati va jamlangan eskirishi real bozor baholaridan kelib chiqqan holda ko‘payish yoki kamayish tomonlariga o‘zgartirilishi mumkin. Agar

o'zgartirishlar o'sish tomonga yuz bergan bo'lsa, o'rtadagi ijobiy farq rezerv kapitalini vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

1) Qayta baholash evaziga vujudga kelgan rezerv kapitalining hisobi

**Debet** asosiy asosiy vositalar schyotlarining ( 0110-0190)

**Kredit** 8510 "Mulknini qayta baholash bo'yicha tuzatishlar" schyotida aks ettiriladi.

8510 "Mulknini qayta baholash bo'yicha tuzatishlar" schyotining kredit oboroti va debet oboroti summalari o'rtasidagi ijobiy farq balansda qayta baholashdan vujudga kelgan maxsus rezerv kapitali sifatida aks ettiriladi. Agar qayta baholash natijasida ushbu schyotning debet oboroti kredit oboroti summasidan katta bo'lsa, u holda korxonaga qayta baholashdan zarar ko'rgan bo'ladi va u 9430 "Boshqa operatsion harajatlari" schyotining debetida va 8510 "Mulknini qayta baholash bo'yicha tuzatishlar" schyotining kreditida aks ettiriladi. Mulknini qayta baholash natijasida vujudga kelgan rezerv kapitali korxonaga tugatilganda ta'sischiylarning hissalariga mos ravishda taqsimlanadi, bunga debet 8510 "Mulknini qayta baholash bo'yicha tuzatishlar" schyoti va kredit 6620 "Chiqib ketgan ta'sischiylarga ularning hissalarini bo'yicha qarzi" schyoti kreditlanadi.

• **Korxonaning sof foydasi hisobidan.** O'zbekiston Respublikasi qonunlari va ta'sis hujjatlariga muvofiq korxonalar o'zlarining sof foydasi evaziga rezerv kapitalini shakllantirishlari mumkin.

2) Rezerv kapitaliga qilingan ajratmalar:

**Debet** 8710 "Hisobot davrning taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)"

**Kredit** 8520 "Rezerv kapitali".

3) Rezerv kapitalini ishlatilishi:

**Debet** 8520 "Rezerv kapitali"

**Kredit** 6610 "To'lanadigan dividendlar", 8710 "Hisobot davrning taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)" va boshqa schyotlar.

• **Qaytarib bermaslik sharti bilan kelib tushgan mulk evaziga.**

4) Bunday yo‘l bilan vujudga kelgan rezerv kapitali:

**Debet** kelib tushgan mulkni aks ettiruvchi schyotlar (0110-0190,0710-0720,0610, 0800, 1000, 5810)

**Kredit** 8530 “Bepul olingan mulk”

O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksiga muvofiq bepul kelib tushgan mulklar bitta tizim korxonalarida yuqori tashkilotning qarori bilan balansdan balansga o‘tkazish tarzida amalga oshirilgan bo‘lsa, daromad solig‘iga tortilmaydi. Boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda bepul kelib tushgan mulk ularning yalpi daromadiga kiradi va soliqqa tortiladi.

**1-jadval**

**8710 – “Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi” bilan bog‘liq operatsiyalar.**

T/r	Xo‘jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog‘lanishi	
		Debet	Kredit
1.	Hisobot davrida aniqlangan yakuniy moliyaviy natija taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) schyotiga o‘tkazildi:		
	foyda summasi	9910	8710
	zarar summasi	8710	9910
2.	Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi dividend to‘lashga yo‘naltirildi	8710	6610
3.	Taqsimlanmagan foyda rezerv kapitalini shakllantirishga yo‘naltirildi	8710	8520
4.	Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi qoldig‘i jamg‘arilgan foydaga o‘tkazildi:		
	Foyda	8710	8720
	Zarar	8720	8710

Rezerv kapitali schyotlari bo‘yicha analitik hisob uning turlari va tashkil topish manbalariga qarab yuritiladi.

Korxonaning barcha yillar bo'yicha faoliyati va hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda yoki qoplanmagan zarar summasining holati va harakati to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

8710 "Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarar)";

8720 "Jamg'arilgan foyda (qoplanmagan zarar)"

Korxonalarining xususiy kapitaliga unga turli manbalardan kelib tushgan maqsadli tushumlar ham kiradi. Maqsadli tushumlarning asosiy turlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

• **Grantlar** - 21-son BHMS ga muvofiq grantlarning hisobi 8810 "Grantlar" schyotida olib boriladi. Grantlarning olinishi va kelib tushishi ushbu passiv schyotning kreditida mablag'larni aks ettirishga mo'ljallangan schyotlarning (0110-0190, 0410-0490, 0610, 5810,1010-1090, 2810, 2910-2990, 5010, 5110, 5210 ,4890 va boshqa schyotlar) debeti bo'yicha korrespondensiyalangan holda aks ettiriladi.

1) Grantlar asosida faoliyat ko'rsatayotgan nodavlat tashkilotlarida olingan grantlarning ishlatilishi:

**Debet** 8810 "Grantlar"

**Kredit** harajatlar schyotlarining (2010,2310,2510,9420,9430 va boshqalar)

2) Xo'jalik yurituvchi korxonalarda olingan grantlarning ustav kapitaliga va rezerv kapitaliga qo'shilishi:

**Debet** 8810 "Grantlar"

**Kredit** 8300 "Ustav kapitali", 8530 "Bepul olingan mulk"

Grantlarning analitik hisobi ularning turlari va maqsadlari bo'yicha yuritiladi.

• **Subsidiyalar** –10-son BHMS "Davlat subsidiyalarining hisobi va davlat yordamini tavsifi", BHMS ga asoslanib yuritiladi. Ushbu me'yoriy hujjatlarga muvofiq olingan subsidiyalarning kelib tushishi 8820 "Subsidiyalar" schyotining kreditida mablag'larni aks ettirishga mo'ljallangan schyotlarning (0110-0190, 0410-0490, 0610, 5810, 1010-1090, 2810, 2910-2990, 5010, 5110,

5210 ,4890 va boshqa schyotlar) debeti bo'yicha korrespondensialangan holda aks ettiriladi.

1) Olingan subsidiyalarning ustav kapitaliga va rezerv kapitaliga qo'shilishi:

**Debet** 8820 "Subsidiyalar"

**Kredit** 8300 "Ustav kapitali", 8530 "Bepul olingan mulk"

•**A'zolik badallari** – 21-son BHMS ga muvofiq a'zolik badallarining hisobi 8830 "A'zolik badallari" schyotining kreditida va pul mablag'lari schyotlarining ( 5010,5110,5210 ) debetida aks ettiriladi. Yig'ilgan a'zolik badallari jamiyatning faoliyatini rivojlantirishga sarflanadi. Jamiyat tugatilganda to'plangan a'zolik badallari uning qarzlarini qoplashga yo'naltiriladi.

•**Maqsadli foydalanish uchun soliq imtiyozlari** - Ushbu maqsadli tushumlarning hisobi maxsus Nizomga, shuningdek 21- son BHMS ga muvofiq 8840 "Maqsadli ishlatishga doir soliq imtiyozlari" schyotida yuritiladi. Ushbu imtiyozlarga ega xo'jalik yurituvchi sub'ektlar soliqlarni Soliq Kodeksi va ularga doir yo'riqnomalar asosida hisoblaydilar. Hisoblangan soliq summasi korxonada qoldirilganda quyidagi yozuv qilinadi:

**Debet** 6410 "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz (turlari bo'yicha)"

**Kredit** 8840 "Maqsadli ishlatishga doir soliq imtiyozlari"

Soliq imtiyozlari ma'lum muddatga berilgan bo'lsa, ushbu muddat tugagach, boshqa hollarda esa hisobot yilning oxirida maqsadli ishlatishga doir berilgan soliq imtiyozlari korxonaning rezerv kapitaliga qo'shiladi va unga quyidagi yozuv qilinadi:

**Debet** 8840 "Maqsadli ishlatishga doir soliq imtiyozlari"

**Kredit** 8530 "Bepul olingan mulk"

Soliq imtiyozlari sifatida olingan maqsadli tushumlarning analitik hisobi soliq to'lovlari turlari bo'yicha olib boriladi.

•**Boshqa maqsadli tushumlar**- bu turli yuridik va jismoniy jaxslardan ma'lum maqsadlar uchun olingan mablag'larning majmuasi. Ularga, masalan,

ota –onalarning bolalar bog‘chasi uchun to‘lovlari, boshqa korxonalaridan tushgan mablag‘lar va boshqalar kiradi. 21-son BHMS ga muvofiq boshqa maqsadli tushumlarning hisobi 8890 “Boshqa maqsadli tushumlar” schyotining kreditida va pul mablag‘lari schyotlarining debetida aks ettiriladi. Ushbu schyotning debetida maqsadli tushumlarning ishlatilishi aks ettiriladi.

1) Xizmat qiluvchi xo‘jaliklarning harajatlarini bir qismi ushbu maqsadli tushumlar hisobidan qoplanganda:

**Debet** 8890 “Boshqa maqsadli tushumlar”

**Kredit** 2710 “Xizmat qiluvchi xo‘jaliklar”

Ishlatilmay qolingan boshqa maqsadli tushumlar korxonalarining rezerv kapitaliga yoki boshqa daromadlariga olib boriladi, ya’ni:

**Debet** 8890 “Boshqa maqsadli tushumlar”

**Kredit** 8530 “Bepul olingan mulk”, 9390 “Boshqa operatsion daromadlar

Boshqa maqsadli tushumlarning analitik hisobi ularning turlari va manbalari bo‘yicha yuritiladi.

Korxonalar o‘zlarining yaqin kelajakda kutilayotgan harajatlari va to‘lovlari uchun, masalan joriy va kapital ta’mirlash uchun, xodimlarga mehnat ta’tili hisoblash uchun va boshqalar uchun, rezerv tashkil qilishlari mumkin. Bunday rezervni tashkil etishdan asosiy maqsad bo‘lib kutilayotgan harajat va to‘lovlarni hisobot yili oylari bo‘yicha teng taqsimlab borish hisoblanadi. Rezerv tashkil qilishning me’yorlari va tartibi korxonaning hisob siyosatida belgilangan bo‘lishi lozim.

1) Tashkil etilgan rezerv korxonaning harajatlariga olib boriladi va u quyidagi buxgalteriya yozuvi bilan aks ettiriladi:

**Debet** 2010,2310,2510,2710,9420,9430 (harajatni aks ettiruvchi schyotlar)

**Kredit** 8910 “Kutilayotgan harajatlar va to‘lovlar uchun rezervlar”

2) Rezervning ishlatilishi

**Debet** 8910 “Kutilayotgan harajatlar va to‘lovlar uchun rezervlar”

**Kredit** qilingan sarflarni aks ettiruvchi schyotlar (1010-1090, 6710,6520,6890,2310,2510,2710 va boshqalar)

3) Ishlatilmay qolgan rezerv summasi hisob siyosatida ko‘zda to‘tilgan tartibga ko‘ra kelgusi yilga o‘tkazilishi, shuningdek harajatlarni kamaytirishga olib borilishi yoki korxonada daromadiga olib borilishi mumkin, ya’ni:

**Debet** 8910 “Kutilayotgan harajatlar va to‘lovlar uchun rezervlar”

**Kredit** 2010,2310,2510,2710,9420,9430 ,9390

Rezervlarning analitik hisobi ularning turlari bo‘yicha yuritiladi.

## **II-BOB. SHAHRISABZ “DON –XALQ RIZQI” OAJDA USTAV, QO'SHILGAN VA REZERV KAPITALINI TASHKIL ETISH**

### **2.1. Shahrisabz "Don –xalq rizqi " OAJda ustav kapitali hisobini yuritish**

Bugungi kunda respublikamizda turli mulkchilik shaklidagi korxonalar o'z faoliyatlarini amalga oshirib kelmoqda. Bularga davlat mulki shaklidagi, aktsiyadorlik jamiyati shaklidagi, ma'suliyati cheklangan jamiyat shaklidagi, qo'shma korxonalar shaklidagi va boshqa korxonalar kiradi.

**Ustav kapitali** - davlat tomonidan korxonaning doimiy tasarrufiga tekinga berilgan moddiy va pul mablag'lari summasidir. Ustav kapitali hiobiga asosiy va aylanma mablag'lar shakllanadi.

Korxonaga asosiy vosita mavjud ishlab chiqarish hajmiga va ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish ob'ektlariga qarab, aylanma mablag'lar esa normativlar asosida beriladi. Normativ yuqori tashkilot tomonidan belgilanadi, ammo ularni taqsimlashni korxonaning o'zi mustaqil amalga oshiradi. Amaldagi tartibga ko'ra korxonalar ustav kapitali miqdori uning ta'sis xujjatlarida kayd etilgan miqdoriga muvofiq bo'lishi kerak Davlat korxonasi uchun yuqori turgan tashkilotning korxonani tashkil etish va uning balansiga ustav kapitalini o'tkazish to'g'risidagi buyruqi ta'sis xujjati hisoblanadi.

Ba'zi hollarda davlat korxonasining ustav kapitali hajmi o'zgarishi mumkin. Ustav kapitali miqdorini faqatgina yuqori tashkilot o'zgartirishi mumkin.

**Aktsiyadorlik jamiyati ustav kapitali** uning aktsiyadorlari sotib oladigan aktsiyalarining nominal qiymatidan iborat bo'ladi. Bunda chiqariladigan jami aktsiyalarning nominal qiymati bir xil bo'lishi mumkin. Aktsiyadorlik jamiyatining ustav kapitali miqdori ko'payishi yoki kamayishi mumkin. Ustav kapitalini ko'paytirish qo'shimcha aktsiyalarni joylashtirish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Jamiyat tomonidan qo'shimcha aktsiyalar faqat jamiyat ustavida belgilangan e'lon qilingan aktsiyalar miqdori doirasida joylashtirilishi mumkin. Aktsiyadorlik jamiyati ustav kapitalini kamaytirish favqulodda hollarda yuz beradi va uni ko'paytirishdagi singari



tartibda amalga oshiriladi. Ustav kapitali miqdorining kamayishi aktsiyalar umumiy sonining qisqarishi bilan bog'liq bo'ladi, shu jumladan, jamiyatning o'zi haqini keyinchalik to'lash bilan aktsiyalarni sotib olishi ham shu hisobga kiradi. Amaldagi qonunlarga binoan aktsiyadorlik jamiyati ustav kapitaliga hissa tariqasida pul bilan baholanadigan va ta'sischi tomonidan jamiyat aktsiyalari haqini to'lash uchun kiritiladigan moddiy boylik mulkiy yoki o'zga huquqlarni to'lashlari mumkin. Jamiyat ta'sis etilayotganda uning aktsiyalari pulini to'lash shakllari jamiyatni tashkil etish to'g'risidagi shartnoma yoki jamiyat ustavida, qo'shimcha aktsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar pulini to'lash ularni joylashtirish to'g'risidagi qarorda ko'rsatiladi. Aktsiyador ta'sis yig'ilishi belgilangan muddatlarda, ammo jamiyat ro'yxatdan o'tgandan keyin bir yildan kechikmay aktsiyalarning to'liq pulini to'lashi kerak. Aktsiyalarni sotib olish muddati o'tganidan keyin aktsiyadorlar jamiyati ularni o'z ixtiyoriga qarab sotishga haqli. Amaldagi qonunlarga muvofiq hissalar bo'lingan ustav kapitaliga ega bo'lgan jamiyat **ma'suliyati cheklangan jamiyat** deb ataladi. Bunday jamiyat ustav kapitalidagi bo'lingan hissalar miqdori ta'sis xujjatlarida belgilab qo'yiladi, uning ishtirokchilari majburiyatlar bo'yicha faqat o'z mulki doirasida javob beradi.

Ma'suliyati cheklangan jamiyatning ustav kapitali faqat muassislarning hissalarini hisobiga tashkil topadi va uning ko'payishi yoki kamayishi hammaning roziligi bilan ko'payishi yoki kamayishi bilan yuz berishi mumkin. Jamiyat ishtirokchisi o'z hissasini jamiyat ro'yxatga olingan sanadan keyin bir yil davomida to'lashi lozim.

**Qo'shma korxonalar** O'zbekiston hamda xorij korxonalarini hissalarini asosida tashkil topadi. Qo'shma korxonaning ustav kapitaliga hissa tariqasida tabiiy resurslaridan, intellektual mulkdan foydalanish huquqi, nou-xau, moddiy va pul vositalari, shu jumladan, chet el valyutasi berilishi mumkin.

Ustav kapitalini buxgalteriyada hisobga olish uchun quyidagi hisobvaraqlar ochilgan:

**8310-“Oddiy aktsiyalar”**

**8320-“Imtiyozli aktsiyalar”**

**8330-“Pay va qo’yilmalar”.**

Ushbu hisobvaraqlar passiv hisoblanadi hamda davlat korxonalari ustav fondining, aksionerlik jamiyatlar va shirkatlar ustav kapitalining shakllanishi va uning harakatini hisobga oladi. Aktsiyadorlik sarmoyasi ro’yxatga olingan hajmda, biroq hali tugallanmagan emissiya sifatida hisobda aks ettirilar ekan, e’lon qilingan (chiqarilishga ruxsat etilgan), joylashtirilgan (ularga aktsiyadorlar obunasi amalga oshirilgan) hamda muomaladagi, ustavga muvofiq qo’shimcha joylashtirilgan oddiy aktsiyalarning analitik hisobini yuritish lozim.

Misol. Karimov o’zining 1000000 sumlik miqdordagi ulushini Ergashevga sotdi:

**Debet 8330-“Ustav kapitali Karimov kuyilmasi”-1000000 sum**

**Kredit 8330-“Ustav kapitali Ergashev qo’yilmasi”-1000000 sum.**

Ikkinchi xolatda yangi muassis mavjud sarmoyaga qo’shimcha sifatida ustav kapitaliga o’z ulushini qo’shganda muassislar ulushlarining foiz nisbati o’zgaradi.

**Misol.** 5000000 sum miqdorida ruyxatga olingan ustav kapitaliga ega bo’lgan va muassislari ulushi: Karimovniki-60%, Juraevniki 40% bo’lgan “Bobur” MCHJ yangi a’zo Xasanov B.ni jalb etish hiosbiga o’z ustav kapitalini 6000000 so’mgacha oshirishga qaror qildi. Mazkur xolatda ulushlar nisbati o’zgaradi va quyidagicha ko’rinishga ega bo’ladi:

Karimov-50% (3000000/6000000);

Juraev-33,3% (2000000/6000000);

Hasanov-16,7% (1000000/6000000).

MCHJ ustav kapitali miqdorining ko’payishi taqsimlanmagan foyda hisobidan ham bo’lishi mumkin. Bu xolatda quyidagicha yozuv qilinadi:

**Debet 8710**-“Hisobot davridagi taksimlanmagan foyda (koplanmagan zarar)”

**Kredit 8330**-“Paylar va ulushlar”.

MCHJda muassis jamiyat tarkibidan chiqishga hamda o'z ulushini olishga qaror qilganda quyidagi provodkalar beriladi:

**Debet 8330**-“Paylar va ulushlar”

**Kredit 6620**-“Chiqib ketayotgan muassislardan ulushlari bo'yicha qarzlari”.

Agar muassis chiqib ketayotgan paytda MCHJ ma'lum jamg'arilgan foydaga ega bo'lsa, u xolda ta'sis xujjatlariga belgilangan nisbatga muvofiq muassislarning unga ham haqi bor.

**Debet 8720**-“Jamg'arilgan foyda”

**Kredit 6620**-“Chiqib ketayotgan muassislardan ulushlari bo'yicha qarzlari”.

Muassis chiqib ketayotganida olgan jamg'arilgan foyda summasidan olgan jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'ini to'lashi lozim. Muassis ustav sarmoyasidan o'z ulushini olib chiqib ketayotganida hech qanday chegirma va ajratmalarsiz ham olib chiqib ketishi mumkin.

Muassis chiqib ketayotganida uning qarzining to'lanishiga quyidagicha provodka beriladi:

**Debet 6620**-“Chiqib ketayotgan muassislardan ulushlari bo'yicha qarzlari”

**Kredit 5010, 5110**-“Pul mablag'lari”.

**Ta'sischilar bilan hisoblashishlar.** Korxonada ro'yxatdan o'tganidan so'ng ro'yxatdan o'tkazilgan ustav kapitali summasiga korxonada oldida muassislarning qarzi vujudga keladi. Ta'sischilarning ustav kapitaliga bo'lgan qarzlari bo'yicha olib boriladigan xisob-kitoblarning hisobi 4610-«Ustav kapitaliga badallar bo'yicha ta'sischilarning qarzlari» hisobvarag'ida olib boriladi. 4610-hisobvaraqa aktiv bo'lib, debet sal'dosi ta'sischilarning oy boshiga bo'lgan sal'dosini ko'rsatadi. Debet oboroti hisobot oyida vujudga kelgan

ta'sischilarning qarzlari aks ettirsa, kredit oboroti ta'sischilar tomonidan utkazib berilgan pul mablag'lari, moddiy qiymatliklar va mulklar qiymatini ko'rsatadi.

Ta'sischilar bilan olib boriladigan hisob-kitoblarning analitik hisobini yuritish uchun asos bulib ta'sis xujjatlari, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni qabul-qilish-topshirish dalolatnomalari, kirim kassa orderlari va boshqalar hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tkazilgan ustav kapitali summasiga

**Debet 4610**-“Ustav kapitaliga badallar bo'yicha ta'sischilarning qarzlari”

**Kredit 8310**-“Oddiy aktsiyalar”, **8320**-“Imtiyozli aktsiyalar” va **8330**-“Paylar va ulushlar”

**2-jadval**

**4610-“Ustav kapitaliga badallar bo'yicha ta'sischilarning qarzlari”  
hisobvarag'i bo'yicha hisobvaraqlar korrespondentsiyasi**

№	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Hisobvaraqlar korrespondentsiyasi	
		debet	kredit
1.	Ustav kapitaliga ulushlari bo'yicha ta'sischilar qarzlarning tashkil etilishi	4610	8310, 8320, 8330
2.	Ta'sischilar qarzlarning asosiy vositalar tarzida to'lanishi	0110-0190	4610
3.	Ta'sischilar qarzlarning nomoddiy aktivlar tarzida to'lanishi	0410-0490	4610
4.	Ta'sischilar qarzlarning pul mablag'larini berish yuli bilan to'lanishi	5010, 5110, 5210	4610
5.	Ta'sischilar qarzlarning boshqa aktivlar tarzida to'lanishi	1010-1090, 2910	4610

Korxonada qo'shilgan kapital hisobi quyidagi hisobvaraqlarda yuritiladi:

**8410-“Emission daromad”**

**8420-“Ustav kapitalini shakllantirish bo'yicha kursdagi farq”.**

Ushbu hisobvaraqlar passiv bulib, ular oddiy va imtiyozli aktsiyalar bo'yicha nominal qiymatdan yuqori bahoda olingan summalarni va ularning harakatini umumlashtirish uchun muljallangan.

Korxonada **qo'shilgan kapital** quyidagi operatsiyalar natijasida vujudga kelishi mumkin:

◆ emission daromadni yuzaga keltiruvchi nominal qiymatdan yuqori bahoda aksiyalar birlamchi sotilishida;

◆ kursdagi farqni keltirib chiqaruvchi xorijiy investitsiyali korxonalar ustav kapitalini shakllantirish paytida.

OAJ rezerv kapitali ustavda belgilangan miqdorga yetguniga qadar har yili sof foydadan ajratmalar yo'li bilan shakllantiriladi:

**Debet 8710**-“Hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)”

**Kredit 8520**-“Rezerv capital”.

Rezerv kapitali korxonaga ko'rgan zararini qoplash, imtiyozli aksiyalar uchun dividend to'lash, aksiyadorlar talabiga ko'ra aksiyalarni qayta sotib olish uchun ishlatiladi.

Masalan, hisobot davrida foyda mavjud bo'lmaganida imtiyozli aksiyalar uchun dividendlar to'landi:

**Debet 8520**-“Rezerv capital”

**Kredit 6610**-“To'lov uchun dividendlar”.

Korxonaga tugatilayotganida turli debitorlarning qarzlari hisobdan chiqarildi:

**Debet 8520**-“Rezerv capital”

**Kredit 4010**-“Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar”.

Ta'sis xujjatlari va hisob siyosatiga muvofiq turli maqsadlar uchun rezerv fondi boshqa mulkchilik shaklidagi korxonalarda ham tashkil etilishi mumkin.

Mol-mulk tekinga olinganida quyidagi provodka beriladi:

**Debet 0110-0190**-“Asosiy vositalar”

**Debet 0410-0490**-“Nomoddiy aktivlar”

**Debet 0610**-“Qimmatli qog'ozlar”

**Debet 1010**-“Xomashyo va materiallar”

**Kredit 8530**-“Beg'araz olingan mol-mulk”.

Amaldagi qonunchilikka binoan bepul olingan mol-mulk qiymati foyda solig'i bazasini oshiradi. Bepul olingan mol-mulk ekspert yuli bilan yoki o'tkazma xujjatlar asosida aniqlangan adolatli qiymat bo'yicha hisobda aks ettiriladi.

## **2.2. Shahrisabz “Don –xalq rizqi” OAJda qo'shilgan va rezerv kapitallarini hisobga olish xususiyatlari**

O'zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi Qonunining 16-moddasi va BXMS-1 ga, hamda “Moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish bo'yicha qoidala <sup>4</sup>”ga asosan moliyaviy hisobot quyidagi hisobotlarning umumiy shakllaridan iborat bo'ladi:

### **I. Yillik moliyaviy hisobot**

1. Buxgalteriya balansi - 1-shakl;
2. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot - 2-shakl;
3. Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot -3-shakl;
4. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot - 4-shakl;
5. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot - 5-shakl;
6. Debitorlik va kreditorlik qarzi shaklida ma'lumotnoma - 2<sup>a</sup>-shakl;
7. Moliyaviy hisobotga tushuntirish xati;
8. Auditorlik xulosasi.

### **II. Choraklik va yarim yillik moliyaviy hisobotlar:**

1. Buxgalteriya balansi - 1-shakl;
2. Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot - 2-shakl;
3. Debitorlik va kreditorlik qarzi haqida ma'lumotnoma - 2<sup>a</sup>-shakl.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faqat Buxgalteriya balansi - 1shakl; Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot - 2 – shakl; hamda Debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida ma'lumotnoma - 2<sup>a</sup> - shakldan iborat bo'lgan

---

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002 yil 27 dekabrda qabul qilingan «Moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish bo'yicha Qoidalar» to'g'risidagi 40-son buyrug'i O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2003 yil 24 yanvarda 1209 - son bilan ro'yxatdan o'tgan.

yillik moliyaviy hisobotni taqdim etadilar. Ushbu buyruqqa ko'ra moliyaviy hisobot shakllarida ko'zda to'tilgan hamma ko'rsatkichlar to'ldirilishi lozim.

Jamiyat har yilning har chorakda, yarim yilda bir marta yoki yilda bir marta uning sof foydasini Jamiyat ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash to'grisida qaror qabul qilishga haqlidir. Shunga tegishli qarorlar Jamiyat ishtirokchilari o'rtasida ishtirokchilarning umumiy yig'ilishida qabul qilinadi va sof foydaning taqsimlashga mo'ljallangan qismi ularning ustav fondidagi ulushlariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Agar jamiyatning ustav fondi to'liq bo'lsa, qarorlar qabul qilish paytida jamiyat qonunlariga muvofiq bankrotlik belgilariga javob bersa yoki mazkur belgilar jamiyat qaror qabul qilinishi natijasida yuzaga kelsa, agar shunday qarorlar qabul qilish paytida jamiyatning sof aktivlarining uning ustav fondidan va zahira fondidan kam bo'lsa, yoki shunday qaror qabul qilinishi natijasida paydo bo'lsa va qonun hujjatlarida nazarda tutulgan boshqa hollarda jamiyat o'z foydasini taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilishga va ishtirokchilarga foydani to'lashga haqli emas. Barcha ko'rsatilgan holatlar va xavflar bartaraf etilgandan so'ng jamiyatning 5 modda 2 bandiga muvofiq ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanishi to'qrisida qaror qabul qilingan foydani to'lashi shart.

Jamiyatning boshqaruv organi bo'lib jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi bo'lib qisoblanadi. Jamiyatining joriy faoliyatiga rahbarlik qilish jamiyatning yakka boshchilik asosida ijro etuvchi organi tomonidan amalga oshiriladi va Jamiyatning ijro etuvchi organi jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishiga javobgardir.

Jamiyatning boshqa ishtirokchilarining roziligidan qat'iy nazar qonunga va jamiyat ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda istalgan vaqtda jamiyatdan chiqishga haqli.

1999-yil 28-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliya - xo'jalik faoliyatini amalga oshirayotgan va qonunchilikda belgilangan muddatlarda o'zlarining ustav jamg'armalarini shakllantirmagan korxonalarni

tugatish tartibini soddalashtirish chora - tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni chiqdi. Bu farmonga ko'ra moliya - xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va qonunchilikda belgilangan muddatlarda o'zlarining ustav jamg'armalarini shakllantirmagan korxonalar faoliyati tuzilgan maxsus hududiy komissiyalar ko'rsatmasiga ko'ra to'xtatiladi.



### **III-BOB. KORXONALARDA USTAV, QO'SHILGAN VA REZERV KAPITALI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

#### **3.1. Shahrisabz "Don –xalq rizqi " OAJda ustav kapitali auditini o'tkazish tartibi**

Korxonada ustav kapitali uning ustavi va ta'sis shartnomasiga muvofiq qoidaga ko'ra, ta'sischilarning hissalarini hisobga barpo etiladi. U korxonaning xo'jalik faoliyatidan olinadigan foydasi hisobiga, zarur bo'lganda ta'sischilarning maqsadli badallari hisobiga xam to'ldirilishi mumkin.

Korxonada ustav kapitaliga hissa sifatida binolar, inshootlar, qurilmalar va boshqa moddiy qiymatliklar: yer, suv va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish xuquqlari, shuningdek, boshqa mulkiy xuquqlar (shu jumladan, kashfiyotlardan foydalanish uchun, "nou-xau" va boshqa nomoddiy aktivlar); qo'shma korxonada ishtirokchi davlatlarining valyutalaridagi erkin ayirboshlanadigan valyutalarda pul mablag'lari qo'shishlari mumkin.

Ustav kapitalini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishdan maqsad, ustav kapitalining holati aks ettiriladigan moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining ishonchliligi, hamda uni hisobga olish uslubiyotining me'yoriy xujjatlarga muvofiqligi to'g'risida fikr shakllantirishdan iborat.

Tekshiruvni korxonada yuridik maqomini va ustavida belgilangan faoliyat turlarini, ta'sischilar va ular ulushlarining tarkibi xamda summasini, ustav kapitalining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun yetarliligini aniqlashdan boshlash maqsadga muvofiq.

Ta'sis xujjatlari, ustav kapitalini shakllantirishga doir dastlabki xujjatlar, xisob registrlari va xisobot ma'lumotlarini tekshirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- ta'sis xujjatlari (ustav, ta'sis shartnomasi) mavjudligi, shakllari va to'g'ri rasmiylashtirilganligi;
- ta'sis xujjatlari mazmunining amaldagi konunchilik va me'yoriy xujjatlar talablariga muvofiqligi;
- ta'sischilar ulushlarining ustav kapitaliga tuliq va o'z vaqtida qo'shilishi;

- ta'sischilar mulk shaklida qo'shadigan ulushlarining to'g'ri baholanishini tekshirish;
- ustavda ko'rsatilgan faoliyat turlarining qonuniyligini tekshirish;
- ustav kapitali hajmining ta'sis xujjatlari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiqligi;
- ustav kapitalining to'liq va to'g'ri shakllantirilganligi;
- ta'sischilarning ustav kapitaliga o'z ulushlarini qo'shish bo'yicha yakuniy xisob-kitoblar uchun qonunda belgilangan muddatlarga rioya qilinishi;
- ustav kapitalini shakllantirishga doir muomalalarning buxgalteriya hisobi schyotlarida to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish;
- ustav kapitaliga ulushlarning haqiqatdan ham qo'shilganligini aniqlash;
- ustav kapitali hajmi o'zgarishining asosliligi va ustav hamda ta'sis shartnomasining qayta ro'yxatdan o'tkazilganligini hamda bu xolda tegishli hisob registrlari va hisobotda aks ettirilganligi.

Ushbu vazifalarni bajarish uchun quyidagi ma'lumot manbalari tahlil qilinadi:

- korxonaning huquqiy maqomini, ustav kapitalini shakllantirish va hisobga olish masalalarini tartibga soladigan asosiy qonun xujjatlari va yuriqnomalari;
- ta'sis xujjatlari (notarial idora tomonidan tasdiqlangan ustav va ta'sis shartnomasi);
- moliyaviy, statistik va boshqa tegishli xisobotlar;
- ustav kapitalini shakllantirish bo'yicha muomalalar hisobga olingan dastlabki xujjatlar, analitik va sintetik xisob registrlari;

Me'yoriy xujjatlarga muvofiqlik masalasini tekshirish uchun ustav kapitalini shakllantirish va hisobga olish qoidalarini o'zida mujassamlashtirgan **me'yoriy hujjatlar to'plami** zarur. Bunday to'plam tekshirilayotgan korxonaning o'ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda shakllantiriladi.

Auditor ta'sis hujjatlarini tekshirishda quyidagilarni aniqlaydi:

- ta'sis hujjatlarida qanday faoliyat turlari ko'zda tutilgan;
- haqiqatda amalga oshirayotgan faoliyat turlarining ta'sis hujjatlariga muvofiqligi;
- O'zbekiston Respublikasining "Ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tug'risida"gi Qonuniga muvofiq litsenziyalanishi lozim bo'lgan faoliyat turlari va litsenziyalarning mavjudligi.

Litsenziyalanishi lozim bo'lgan faoliyat turlari bo'yicha litsenziyalar mavjudligi va ularning amal qilish muddatlari tekshiriladi. Chunki, korxonada bunday faoliyat turlari bilan shug'ullanish huquqiga litsenziya olingan yoki unda ko'rsatilgan vaqtdan boshlab ega bo'ladi va ushbu huquq litsenziya amal qilish muddati o'tishi bilan to'xtatiladi. Tegishli litsenziyalarga ega bo'lmasdan amalga oshirilgan faoliyat turlari noqonuniy xisoblanadi. Agar korxonada bitta ta'sischi tomonidan tashkil etilgan bo'lsa, bunda u mazkur ta'sischi tomonidan tasdiqlangan, tegishli hokimiyat organidan ro'yxatdan o'tgan va notarial idora tomonidan tasdiqlangan ustav asosida faoliyat ko'rsatadi. Ta'sis xujjatlari bilan tanishish auditorga mulk egasi kim ekanligini va kimning manfaati uchun tekshiruv o'tkazilayotganligini aniqlashga imkon beradi.

Agar korxonada bir necha ta'sischilar tomonidan tashkil etilgan bo'lsa, u holda **ta'sis shartnomasi** tuzilishi lozim, **ustav** esa ta'sischilar tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim. Masalan, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar (MCHJ) barcha ta'sischilar tomonidan imzolangan **ta'sis shartnomasi** va **ustav** asosida tashkil etiladi va faoliyat ko'rsatadi.

Auditor tegishli ta'sis xujjatlarining mavjudligini va ularni tasdiqlash xamda davlat ro'yxatidan o'tkazish qoidalariga rioya qilinishini aniqlaydi. Korxonada ta'sischilar tomonidan uni tashkil etish o'ug'risidagi qaror qabul kilingan vaqtdan boshlab emas, balki davlat ro'yxatidan o'tgan kundan boshlab yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan deb hisoblanadi. Shu boisdan, **davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risidagi guvoxnomaning** mavjudligini, agar ta'sis

xujjatlariga o'zgartirishlar kiritilgan bo'lsa, qayta ro'yxatdan o'tkazilganligini tekshirish lozim.

Auditor **ta'sis shartnomasi** bilan tanishishda, unda qanday shartlar keltirilganligini aniqlaydi. Jumladan:

- mulklarni ulush sifatida qo'shish (topshirish);
- faoliyatda ishtirok etish;
- foyda va zararlarni ta'sischilar o'rtasida taqsimlash;
- korxonada faoliyatini boshqarish va unda ta'sischilarning ishtiroki;
- ta'sischilarning korxonadan chiqishi.

OAJ ta'sis shartnomasida yuqorida sanab o'tilgan ma'lumotlardan tashqari quyidagi shartlar ham bo'lishi lozim:

- ustav kapitalining tarkibi va hajmi to'g'risida;
- har bir ta'sischi ulushining hajmi va uni o'zgartirish tartibi;
- ta'sischilar ulushlarining tarkibi, xajmi va topshirish muddatlari;
- ulushlarni qo'shishga doir majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik;
- ta'sischilar tomonidan qo'shiladigan ulushlarning jami summasi.

Auditor korxonada ustavi bilan tanishish chog'ida unda quyidagilar ko'rsatilganligini aniqlaydi:

- korxonaning o'ziga xos xususiyatlari va tashkiliy-huquqiy shaklini ifodalaydigan nomi;
- korxonaning davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan, joylashgan o'rni;
- ustav kapitalining ko'lami va uning barcha ta'sischilar o'rtasida ulushlarga taqsimlanishi;
- korxonaning maqsadi va faoliyat turlari;
- ijro organlarini saylash yoki tayinlash tartibi;
- korxonada boshqaruv organining tarkibi va vakolatlari hamda ular tomonidan qaror qabul qilish tartibi;
- dividendlar taqsimlash tartibi;

- amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgani hamda ta'sischi bilan kelishilgan, lekin qonunchilikka zid kelmaydigan boshqa zarur masalalar. Shuningdek, ta'sis xujjatlarini tekshirishda korxonaning tashkiliy-huquqiy shaklini e'tiborga olish zarur. Masalan, aktsiyadorlik jamiyatining ta'sischi tomonidan tasdiqlangan ustavida, ustav kapitalining ko'lami to'g'risidagi ma'lumotlar bilan birga jamiyat tomonidan chiqariladigan aktsiyalarning toifalari, ularning nominal qiymati va miqdori, aktsiyadorlarning huquqlari to'g'risidagi shartlar xar xil bo'lishi lozim. Aktsiyadorlik jamiyatining barcha aktsiyalari bir aktsiyador tomonidan sotib olinganda, aktsiyadorlik jamiyatini bir kishi tashkil etgan xisoblanadi yoki bir aktsiyadordan iborat bo'ladi. Bu xoldagi ma'lumotlar aktsiyadorlik jamiyati ustavida qayd qilingan, ro'yxatga olingan va hamma tanishishi uchun e'lon qilingan bo'lishi kerak.

Ishtirokchilar tarkibini tahlil qilishda, aktsiyadorlik jamiyati va mas'uliyati cheklangan jamiyat yagona ishtirokchisi sifatida, bitta shaxsdan iborat xo'jalik yurituvchi sub'ekt bo'la olmasligiga e'tibor berishi kerak.

Aktsiyadorlik jamiyatlari va mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda ham yuridik shaxslar, ham jismoniy shaxslar ta'sischi sifatida ishtirok etishlari mumkin.

Qo'shma korxonalar ustav kapitaliga o'zbekistonlik ishtirokchi tomonidan qo'shiladigan hissa xorijiy ishtirokchilar bilan kelishuvga ko'ra milliy valyutada qanday baholansa, kelishilgan baholar bo'yicha chet el valyutasida xam jahon bozoridagi baxoni hisobga olgan holda shunday baholanadi.

Xorijiy ishtirokchining hissasi ham shu tartibda qo'shma korxonani tashkil etish haqidagi shartnoma imzolangan kundagi yoki uning ishtirokchilari kelishgan boshqa sanaga amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining rasmiy valyuta kursi bo'yicha sumga hisoblab o'tkazish yo'li bilan baholanadi.

Jaxon bozori baxosi bo'lmaganda qo'shilayotgan mulklar qiymati ishtirokchilarning kelishuviga muvofiq aniqlanadi.

Ta'xis xujjatlarini tekshirishda amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq har bir tashkiliy-huquqiy shakldagi xo'jalik yurituvchi sub'ekt uchun turli mas'uliyatlar belgilanishini inobatga olish zarur.

Korxonalar ta'xischilarining soni va ularning ustav kapitalidagi ulushini tekshirish chog'ida auditor ta'xischilarning eng ko'p soni va bir ta'xischining ustav kapitalidagi eng ko'p ulushi, hamda ustav kapitalining eng kam ko'lamiga tegishli yuridik shaxs uchun qo'llaniladigan qonun bilan aniqlanadi. Masalan, «Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ochiq turdagi aktsiyadorlik jamiyatlari (OAJ) ustav kapitalining eng kam miqdori jamiyat ro'yxatdan o'tkazilgan paytda qonun xujjatlarida belgilab qo'yilgan to'rt yuz ming AQSh dollar miqdordan kam bo'lmasligi, yopiq turdagi aktsiyadorlik jamiyatlari (YoTAJ) ustav kapitali esa jamiyat ro'yxatdan o'tkazilgan paytda qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan bir yuz ellik ming AQSh dollar miqdordan kam bo'lmasligi kerak.(20-modda)

Ushbu talablarga rioya qilinishi korxonaning faoliyat ko'rsatishi, hamda kreditorlarning manfaatlarini huquqiy va iqtisodiy himoyalash shartlaridan biri hisoblanadi. Korxonalar **sof aktivlari miqdorining ustav kapitalidan** oshib ketishi (yoki teng bulishi) to'g'risidagi majburiy talablarga rioya qilinishi shu maqsadlardagina tekshiriladi.

Korxonaning xususiy kapitalini tekshirish uchun zarur ma'lumotlar moliyaviy hisobotning quyidagi shakllarida aks ettiriladi:

**Buxgalteriya balansida (OKUD buyicha 1-shakl):**

Ta'xischilarning ustav kapitaliga qo'shadigan ulushlari bo'yicha qarzlari – aktivdagi II-“Aylanma aktivlar” bo'limining “Ta'xischilar bilan hisoblashishilar” moddasi (4710-schyot) (280-satr);

Passivdagi “O'z mablag'lari manbalari” bo'limida ustav kapitali (320 satr), qo'shilgan kapitali (330 satr), zaxira kapitali (340 satr), taqsimlanmagan foyda (350 satr);

### **Xususiy kapital to'g'risidagi xisobot (5-shakl) da**

Xususiy kapitalning tarkibi bo'yicha yil boshiga qoldig'i (010 satr 3,4,5,6,7,8,-ustunlar), yil davomidagi o'zgarishi (020-070 satrlar) va yil oxiriga koldig'i (080-satr).

Ta'sischilar ulushlarining ustav kapitaliga qo'shilganligini tasdiqlovchi hujjatlarga dalolatnomalar, nakladnoylar, bank ko'chirmalari, to'lov-topshiriqnomalari nusxalari, kassa kirim orderlarining kvitantsiyalari va boshqa dastlabki hujjatlar misol bo'la oladi. Ustav kapitaliga ulush sifatida qo'shiladigan mulklarga egalik qilish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarga ko'chmas mulk, yer uchastkalari, transport vositalari, intellektual mulk va shunga 'xshashlarga egalik qilish huquqini tasdiqlovchi guvoxonmalar kiradi.

Tashkiliy hujjatlar:

- davlat ro'yxatiga olinganligi to'g'risida guvoxnoma;
- buyruqlar va farmoyishlar;
- aktsiyadorlar va ta'sischilar bilan yozishmalar;
- aktsiyalarga obuna bo'lish natijalari to'g'risidagi, savdo natijalari to'g'risidagi, ta'sischilar yoki aktsiyadorlar majlisining bayonnomalari;
- soliq inspeksiyada xisobga olinganligi to'g'risida ma'lumotnoma, davlat statistika organlari, tegishli sug'urta tashkilotlari va boshqa byudjetdan tashqari tashkilotlarda ro'yxatga olinganligi to'g'risida guvoxnoma;
- amaldagi qonunchilikka muvofiq litsenziyalanishi lozim bo'lgan faoliyat turlari uchun berilgan litsenziyalar;
- yuritilayotgan xisob shaklidan qat'iy nazar ochiq turdagi aktsiyadorlik jamiyatlari aktsiyadorlar reestrini xam tekshiruvga taqdim qiladi.

Ustav kapitaliga ta'sischilar tomonidan ulushlarni qo'shish muddatlariga rioya qilinishini va to'liqligini tekshirishda quyidagilarga e'tibor berilishi lozim:

- ustav kapitalining to'liq shakllanganligi;

- ta'sischilar haqiqatda qo'shgan ulushlarining ta'sis hujjatlarida belgilangan shartlarga mosligi;

- ta'sischilar tomonidan ustav kapitaliga ulushlarni qo'shishda qonunchilik va ta'sis hujjatlarida belgilangan muddatlarga rioya qilinishi.

Davlat korxonalarida davlat mulki hisoblangan ustav fondi shakllantiriladi.

Auditor tekshiruv chog'ida barcha ta'sischilar qonunchilikka muvofiq o'z ulushlarini ustav kapitaliga o'z vaqtida va to'g'ri hamda to'liq qo'shganliklarini aniqlashi kerak.

Masalan, mas'uliyati cheklangan jamiyat (MCHJ) ustav kapitaliga jamiyatni ro'yxatga olish paytida har bir ishtirokchi kamida 30 % ulushini qo'shgan bo'lishi kerak.

Korxonada ustav kapitaliga ta'sischilar tomonidan ulushlar qo'shilmagan yoki to'liq qo'shilmagan holatlarning aniqlanishi, tegishli boshqaruv organlari uchun korxonada ta'sis etilmagan va tugatilishi kerak deb topilishiga asos bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, ta'sischilar tomonidan ustav fondiga ulush sifatida qo'shiladigan mablag'lar O'zbekiston Respublikasida amaldagi qonunchilikka muvofiq QQS ga tortilmaydi. Shuningdek, korxonalarni tugatish yoki qayta tashkil etish chog'ida pay (ulush) ko'rinishida, natura yoki pul shaklida olingan mablag'lar ham, ularning ustav fondidan hamda yuridik shaxslar pay (ulushi)dan oshib ketmagan miqdorda, QQS ga tortilmaydi.

Ustav kapitaliga ulushlar pul, qimmatli qog'ozlar, boshqa buyumlar yoki mulkiy huquqlar hamda pulda baxolanadigan boshqa huquqlar shaklida qo'shilishi mumkin. Shu boisdan auditor ta'sischilar ulushlarini pulda baxolashning to'g'riligini tekshirishi muhimdir. Xo'jalik jamiyati ta'sischisining ulushini pulda baholash jamiyat ta'sischilar o'rtasidagi kelishuvga muvofiq amalga oshiriladi. qonunda ko'zda tutilgan ayrim hollarda esa mustaqil ekspert tomonidan baholanishi kerak.

Buxgalteriya xisobining jurnal-order shakli qo'llaniladigan korxonalarda amaldagi qoidalarga muvofik 8511-8513 schyotlar buyicha №13- jurnal-order



va analitik hisob vedomostlari qo'llaniladi. Buxgalteriya hisobi ustav kapitaliga qo'shiladigan hissalar hisobda va balansda ularning haqiqatda kirim qilinish me'yoriga qarab aks ettiriladi: asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, tovar-moddiy qiymatliklar uchun qabul qilish-topshirish dalolatnomasining tuzilgan sanasi, pul mablag'lari uchun mablag'larining korxonaga schyotiga kelib tushgani (bank ko'chirmasi va unga ilova qilingan tegishli hujjat). Bunda ushbu hissalarining analitik hisobi har bir ishtirokchi bo'yicha yuritiladi.

Hissalarining belgilangan miqdori kirim qilinganidan so'ng ustav kapitalining tashkil etilishi hisobda aks ettiriladi.

Ustav kapitalining miqdori ta'sis hujjatlarida belgilanganidan oshib ketmasligini ta'kidlab o'tish zarur.

Korxonaga ta'sischi ulushlarining yig'indisi (ulushlar, aksiyalar, pay badallari) ta'sis xujjatlarida qayd kilingan ustav kapitalining miqdori va summaları tegishli dastlabki xujjatlarga (dalolatnomalar, bank ko'chirmalari, bank kassasiga naqd pul topshirilganligi to'g'risida kvitantsiya va x.k) asosan schyotlar aloqasi tuzilib, dastlabki buxgalteriya balansida aks ettiriladi.

Ustav kapitali summasi ta'sis xujjatlari, hisob registrlari va hisobotdagi ma'lumotlarga teng bo'lishi lozim.

№21 –BHMS ga muvofiq ustav kapitalini hisobga oladigan schyotlar (8511-“Oddiy aksiyalar”, 8512-“Imtiyozli aksiyalar”, 8513-“Pay va ulushlar”) krediti va 4710 –“Ustav kapitali (fondi)ga ulushlar buyicha ta'sischilarning qarzlari” schyotining debeti buyicha yozuvlar korxonaga davlat ruyxatidan o'tganidan so'ng amalga oshiriladi. Ustav kapitalining miqdori tug'risidagi ma'lumotlar tengligi quyidagi chizma bo'yicha tekshiriladi

Ustav kapitali to'liq va tug'ri shakllanishi 4710 –“Ustav kapitali (fondi)ga ulushlar bo'yicha ta'sischilarning qarzlari” schyoti ma'lumotlari bilan 8511 –“Oddiy aksiyalar”, 8512 –“Imtiyozli aksiyalar” schetlari yoki 8513 –“Paylar va ulushlar” schyoti (xo'jalik yurituvchi sub'ekt tashkiliy-huquqiy shakliga qarab tegishli schyot) ma'lumotlarini solishtirish asosida tekshiriladi.

Har bir ta'sischi tomonidan ustav kapitaliga ulushlarning haqiqatan qo'shilganligi tasdiqlovchi buxgalteriya hujjatlarining mavjudligi va to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshirish orqali aniqlanadi. Natura shaklidagi ulushlar (asosiy vositalar, materiallar va x.k) tegishli shakldagi dalolatnomalar, pul mablag'lari, kassa va bank xujjatlari bilan tasdiqlanadi. Tasdiqlovchi hujjatlarda tegishli mablag'larning aynan ustav kapitaliga ulush sifatida ta'sis xujjatlariga muvofiq topshirilganligi xaqida ma'lumotlar bo'lishi lozim. Bu nafaqat ustav kapitaliga qo'shiladigan ulushlarni buxgalteriya xisobida to'g'ri rasmiylashtirish uchun, balki soliqqa tortish masalalari uchun ham zarurdir.

Shuningdek, tekshiruv chog'ida ushbu xujjatlar shakl va mazmunlarining O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya xisobi to'g'risida" gi Qonun 9-moddasi talablariga muvofiqligi ham aniqlanadi.

Ustav kapitaliga ulushlarning ta'sischi tomonidan haqiqatda qo'shilganligi tegishli dastlabki xujjatlar va 4710-"Ustav kapitali (fondi)ga ulushlar bo'yicha ta'sischi qarzlar", 6620-"Chiqib ketayotgan ta'sischi ulushlari buyicha qarzlar" schyotlari bo'yicha hisob registrlaridagi yozuvlar asosida tekshiriladi. 4710-schyotning debet qoldig'i ta'sischi ulushlarning ustav kapitaliga qo'shadigan ulushlari bo'yicha qarzlarni, 6620-schyotning kredit qoldig'i korxonaning chiqib ketayotgan ta'sischi ulushlari bo'yicha qarzlarni bildiradi. Auditor ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha qarzlarning o'z vaqtida to'lanishi va 4710 va 6620 schyotlar bo'yicha qoldiqlarning haqqoniyligini aniqlash lozim.

Aktsiyadorlik jamiyatlarida ustav kapitalining to'g'ri shakllantirilishini tekshirishda quyidagi talablarga rioya qilinganligi tekshiriladi:

- ustav kapitali aktsiyadorlar tomonidan sotib olingan aktsiyadorlik jamiyati aktsiyalarining nominal qiymatidan tashkil topganligi;
- barcha aktsiyalar egasi yozilgan aktsiya ekanligi va ta'sis etishda ta'sischi o'rtasida joylashtirilgan bo'lishi lozim;
- joylashtirilgan imtiyozli aktsiyalarning nominal qiymati aktsiyadorlik jamiyati ustav kapitalining 20% dan oshmasligi lozim;

- aktsiyadorlik jamiyati aktsiyalari uni ta'sis etish chog'ida ustavda ko'rsatilgan muddat davomida tuliq to'lanishi lozim. Ammo ustav kapitalining kamida 50% bir oy ichida, qolgan qismi esa jamiyat ro'yhatdan o'tgan paytdan boshlab bir yil ichida to'lanishi lozim;

- To'lov shakllari (pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, pulda baholangan boshqa buyumlar yoki mulkiy huquqlar) aktsiyadorlik jamiyatining ustavi va ta'sis shartnomasiga mos kelishi lozim;

- ochiq va yopiq turdagi aktsiyadorlik jamiyatlarining chiqarilgan aktsiyalari reestrda ro'yxatga olingan bo'lishi shart;

- aktsiyalarning analitik xisobi ta'sischilar, ustav kapitalining shakllanish bosqichlari va aktsiyalarning turlari buyicha batafsil ma'lumot olishni ta'minlashi lozim.

Auditor tekshiruv jarayonida oddiy aktsiyalardan iborat aktsiyadorlik kapitali (8511-schyot), imtiyozli aktsiyalar ko'rinishidagi aktsiyadorlik kapitali (8512-schyot), qaytarib sotib olingan oddiy xususiy aktsiyalar(8610-schyot) va qaytarib sotib olingan imtiyozli aktsiyalar (8620-schyot) ni aloxida tekshiradi.

№21 BHMS ga muvofiq aktsiyadorlik jamiyati davlat ro'yxatidan o'tgan paytdan boshlab oddiy va imtiyozli aktsiyalarning obuna summasi mos ravishda 8511 va 8512- schyotlar kreditida aks ettirilishi lozim (Dt 4710-schyot, Kt 8511,8512-schyotlar).

Aktsiyalar qiymati pul, qimmatli qog'ozlar, pulda baholangan boshqa buyumlar yoki mulkiy huquqlar bilan to'lanishi mumkin.

Ustav kapitalining shakllanishini tekshirishda aktsiyalar qiymatini to'lash uchun topshirilgan mulklarni baxolashning to'g'riligini aniqlash zarur. Bu mulklarni baxolash ta'sischilarning kelishuviga muvofik amalga oshirilishi, qonunda ko'zda tutilgan hollarda esa mustaqil ekspert baxolashi lozim.

Ustav kapitaliga ulushlarning haqqoniy qo'shilganligini auditor ta'sischilar bilan hisob-kitoblarni tasdiqlovchi hujjatlarning mavjudligi va to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshirish orqali aniqlaydi. Tasdiqlovchi xujjatlarda **ustav kapitalini shakllantirish** to'g'risida ko'rsatilgan bo'lishi

lozim. Bu nafaqat muomalani buxgalteriya xisobi schyotlarida to'g'ri aks ettirish uchun, balki soliqlar bo'yicha imtiyozlarni qo'llashning to'g'riligini asoslash uchun ham muhimdir.

Dastlabki hujjatlar (asosiy vositalarni, nomoddiy aktivlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomalari, yuk xatlari, schyotlar, kassa xisobotlari, bank ko'chirmalari, to'lov topshiriqnomalari va b.) bo'yicha ustav kapitaliga qo'shilgan ulushlarning tegishli schyotlarda to'g'ri aks ettirilganligi tekshiriladi.

Ustav kapitaliga qo'shilgan ulushlarni tekshirishda auditor ishtirokida inventarizatsiya o'tkazish maqsadga muvofiq. Bunda ustav kapitaliga ulush sifatida ishlashga yaroqsiz asosiy vositalar, amaliy qiymatini yo'qotgan nomoddiy aktivlar qo'shilgan holatlar aniqlanishi mumkin.

Ustav kapitali o'zgarishining asosligini tekshirish 8510-“Ustav kapitali (fondi) ni hisobga oladigan schyotlar”(8511,8512,8513-schyotlar) bo'yicha hisob registrlarining yozuvlarini tekshirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunday yozuvlar ustav kapitali beligilangan tartibda kupaytirilgan yoki kamaytirilgan holatdagina, faqat aktsiyadorlik jamiyatining ta'sis hujjatlariga tegishli tarzda o'zgartirishlar kiritilganidan so'ng amalga oshiriladi.

Tekshiruv chog'ida ustav kapitalini ko'paytirish manbalari aniqlanadi. Ular asosan quyidagilar hisobiga bo'lishi mumkin:

- emitent-aktsiyadorlik jamiyatining o'z aktsiyalarini ularning nominal qiymatidan yuqori bahoda sotishdan olingan mablag'lar ya'ni **emission daromad** (Kt 8521-schyot);
- jamg'arma, iste'mol va boshqa fondlar hamda ishlatilmagan zaxiralar mablag'lari;
- oldingi yil yakuni bo'yicha taqsimlanmagan foyda;
- grantlar, subsidiyalar va kaytarib berilmaydigan yordamlar hisobiga (Kt 8810-schyot);
- aktivlarni qayta baxolashdan xosil bo'lgan manba hisobiga (Kt 8531-schyot);
- dividendlar hisobiga.

Auditor ustav kapitali kamaytirilishining asosliligini ham tekshiradi.

Yuqorida nomi qayd qilingan qonunning 22-moddasiga muvofiq “Jamiyatning ustav fondi aktsiyalarning nominal qiymatini yoki ularning umumiy sonini qiskartirish yo’li bilan, shu jumladan aktsiyalarning bir qismini jamiyatning o’zi keyinchalik muomaladan chiqarish sharti bilan sotib olish yo’li bilan kamaytirilishi mumkin” (18)

Auditor ustav kapitalining korxonaga xususiy manbalarining kapitallashtirilishi hisobiga ko’paytirilishi, yoki yuqoridagi holatda kamaytirilishi to’g’risida aktsiyadorlar majlisining qarori mavjudligini ham aniqlaydi. Ustav kapitali ko’paytirilganda qo’shimcha aktsiyalar qiymatini to’lash shakli ularni joylashtirish tug’risidagi qaror bilan belgilanadi.

Keyinchalik auditor asosiy va qo’shimcha chiqarilgan aktsiyalar qiymatining to’lanishini tekshiradi. “Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning xuquqlarini himoya qilish to’g’risida”gi qonunning 37-moddasiga muvofiq “Jamiyat aktsiyalariga haq to’lash bozor qiymatida amalga oshiriladi” (18).

Faqat quyidagi hollardagina aktsiyalar ularning bozor qiymatidan arzonroq narxda joylashtirilishi mumkin:

- jamiyatning qo’shimcha oddiy aktsiyalari oddiy aktsiyalar egalari bo’lgan aktsiyadorlarga joylashtirilib, ular oddiy aktsiyalarni bozor qiymatining to’qson foizidan past bo’lmagan narxda sotib olishdan iborat o’z imtiyozli xuquqlarini ro’yobga chiqargan hollarda;

- qo’shimcha aktsiyalar vositachi ishtirokida joylashtirilib, ularning bahosi bozor bahosidan ko’pi bilan bunday aktsiyalarni joylashtirish baxosiga nisbatan foizlarda belgilangan vositachilik xaqi miqdorida arzon bo’lganida.

Ustav kapitali auditorlik tekshiruvidan o’tkazishning yakunlovchi bosqichida uning eng kam miqdori to’g’risidagi qonunchilik talablariga rioya qilinishi ham aniqlanadi.

Ustav kapitalining sintetik va analitik hisobini yuritishning to’g’riligi mazkur korxonada qo’llanilayotgan xisob shaklining registrlari (memorial-

orderlar, daftarlar, jurnal-orderlar, mashinagrammalar va x.k) ma'lumotlarini tekshirish bilan aniqlanadi.

Ustav kapitalining analitik xisobini tekshirishda nafaqat uning sintetik xisob ma'lumotlariga tengligi, balki aktsiyalarning turlari, ularning egalari, aktsiyalar uchun xisob-kitoblarning axvoli va boshqalar bo'yicha axborot olish imkoniyatlari ham aniqlanadi.

Shuningdek, auditor "Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyalarning xuquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunning 47-50 moddalariga muvofiq **aktsiyadorlar reestrini** yuritish qoidalariga rioya qilinishini xam tekshiradi.

Barcha bajarilgan tekshiruv amallari va aniqlangan nomuvofiqliklar auditorning ishchi hujjatlarida aks ettiriladi.

Tekshiruv yakunida auditor ustav kapitalini hisobga olish va hisobotda aks ettirish bo'yicha aniqlangan tafovutlarning qanchalik ahamiyatliligi (kattakichikligi)ni me'yoriy hujjatlar talablariga nisbatan aniqlaydi. Agar auditor aniqlangan tafovut ustav kapitaliga doir xisobot ko'rsatkichlariga unchalik ta'sir qilmaydi deb xisoblasa, u ushbu ko'rsatkichlarning ishonchliligi to'g'risida **ijobiy auditorlik xulosasi** tuzishi mumkin. Agar axvol bunga teskari bo'lsa, ya'ni aniqlangan tafovutlar ustav kapitaliga doir xisobot ko'rsatkichlarini sezilarli darajada buzib ko'rsatilganligi aniqlansa, u holda auditor ushbu kamchiliklarni aks ettirib **salbiy auditorlik xulosasi** tuzadi.

№21 BHMS ga muvofiq 8520-qo'shilgan kapitalni hisobga oladigan schyotlarda oddiy va imtiyozli aktsiyalarni nominal qiymatidan yuqori bahoda dastlabki sotishdan olingan **emission daromadlar** (8521), ustav kapitalini shakllantirishda hosil bo'lgan **kurs tafovutlari** (8522), hamda **qaytarib berilmaslik sharti bilan olingan mol-mulk** (8523) aks ettiriladi. Auditor ushbu kapital tarkibining to'g'ri shakllanishi va o'zgarishlarini tegishli asos bo'luvchi xujjatlarga muvofiq tekshirib, natijalarini uzining ishchi xujjatlarida qayd qilib borishi zarur. Jumladan, aktsiyalarni sotishdan olingan mablag'lar kirimi, nominal va birja (bozor) bahosi urtasidagi farqni aniqlash hamda

xususiy kapital tarkibida qo'shilgan kapitalning shakllanishini to'g'ri aks ettirish va x.k. Bunda asosan quyidagi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi.

1) Korxonada davlat ro'yxatidan o'tganidan so'ng ishtirokchilar (ta'sischi) qo'shadigan ulushlar (obuna bo'lingan aksiyalar) summasi ustav kapitalida aks ettirilganda:

**Debet** 4710 –“Ustav kapitali (fondi)ga ulushlar bo'yicha ta'sischi qarzlar”(agar aksiyaga obuna bo'linsa-obunachilar bo'yicha ochilgan analitik schyotlar);

**Kredit** 8510-“Ustav kapitali (fondi)ni xisobga oladigan schyotlar”(8511,8512,8513-schyotlardan tegishlisi,agar aksiyaga obuna bo'linsa, uning nominal qiymatiga Kt-8511,8512-schyotlar )

**Kredit** 8521-schyot – aktsiya nominal qiymatidan birja baxosining oshgan qismiga (emission daromad)

2) Ta'sischi (ishtirokchilar) tomonidan ta'sis shartnomasiga muvofiq ulushlar (moddiy, nomoddiy, pul mablag'lari va x.k ko'rinishida) tegishli dastlabki xujjatlar (qabul qilish-topshirish dalolatnomalari, nakladnoylar, kassa kiritim orderlari, bank ko'chirmalari)ga asosan topshirilganda:

**Debet** 0110-0199, 0440-0490, 0710, 0720, 0810, 1010-1090, 1110, 1210, 2810, 2820, 2910, 5010, 5110, 5210 –schyotlardan tegishlilari.

**Kredit** 4710- schyot (ta'sischi bo'yicha ochilgan tegishli analitik schyotlar)

Auditor 8521-“Emission daromadlar”, 8522-“Ustav kapitalini shakllantirishda kursdagi farqlar” va 8523 –“qaytarib berilmaslik sharti bilan olingan mol-mulk” schyotlari bo'yicha analitik hisobning tashkil etilishi va yuritilishining to'g'riligini tekshirishi lozim. Bunda qo'shimcha to'langan kapitalning xisobi oddiy va imtiyozli aksiyalar bo'yicha alohida yuritilayotganligiga e'tibor berishi zarur. Shuningdek, hisobdan chiqarilgan va sotilgan aksiyalarning turlari, ular egalarining schyotlari yoki ta'sischi va xissadorlarning shaxsiy schyotlari bo'yicha axborotlarni yetkazib berish imkoniyatlariga xam jiddiy e'tibor berishi kerak.

№21 BHMS ga muvofiq korxonaning ta'sis xujjatlariga muvofiq foyda hisobidan yaratilgan zaxiralar, aktivlarni qayta baholashda hosil bo'lgan inflyatsion zaxiralar, xisobotlarni umumlashtirishda vujudga keladigan kurs tafovutlari **zaxira kapitalini** tashkil etadi. Zaxira kapitalining mavjudligi va xarakati quyidagi schyotlarda xisobga olinadi.

8531-“Aktivlarni qayta baxolash bo'yicha tuzatishlar”;

8532-“Zaxira kapitali”

8535-“Hisobotlarni umumlashtirishda vujudga keladigan kurs farqlari”

Auditor zaxira kapitalini tekshirishda, dastavval, uni shakllantirish uchun asos bo'luvchi me'yoriy hujjatlar mavjudligi va ularga rioya qilinayotganligini aniqlaydi. Balansning «Zaxira kapitali» moddasi bo'yicha mavjud summaning tegishli sanaga tuzilgan sintetik va analitik hisob registrlaridagi (8531,8532 va 8535 schyotlar buyicha kredit) qoldiklariga tengligi tekshiriladi.

So'ngra xar bir schyot bo'yicha qoldiq summalar, debet va kredit oborotlar moxiyatan tekshiriladi.

Masalan, 8531-“Aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar” schyoti bo'yicha qoldiq summa qachon paydo bo'lganligi, aktivlarni qayta baxolash to'g'risida xukumat qarorlari, uslubiy ko'rsatmalar, korxonalar hisob siyosati va boshqa asoslar mavjudligi aniqlanadi. Shuningdek, qayta baholash bo'yicha bajarilgan xisob-kitoblar to'g'riligi (xar bir analitik xisob ob'ekti bo'yicha), qayta baholash natijalarining tegishli analitik xisob registrlarida aks ettirilishi va schyotlar bog'lanishi (provodkalar) tug'ri belgilanganligi tekshiriladi.

Aktsiyadorlik jamiyatlari, qo'shma korxonalar va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda yaratilgan zaxira kapitalining mavjudligi va o'zgarishi 8532-“Zaxira kapitali” schyoti ma'lumotlari bo'yicha tekshiriladi. Bunda auditor zaxira kapitalini shakllantirishga doir O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari va ta'sis hujjatlarining tegishli qoidalariga rioya qilinishini aniqlaydi.

Zaxira kapitaliga foydadan ajratmalar, uning korxonalar ta'sis xujjatlarida ko'zda tutilgan korxonalar ustav kapitalining 20 % yetmaguncha ajratilaveradi.



Auditor ushbu kapitalning to'g'ri tashkil etilishi va to'ldirilib borishini tekshirishda ajratmalar xisobiga yaratilgan zaxira kapitali ustav kapitalining 20% dan oshmaganligi, mulklar (asosiy vositalar)ni qayta baholashda hosil bo'lgan inflyatsion zaxiralarning xammasi 8531-schyot kreditiga olib borilganligini aniqlaydi.

Hisobotlarni umumlashtirishda vujudga keladigan kurs farqlarini (8530-schyot) tekshirishda O'zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonunining 17-moddasi va №8-“Umumlashtirilgan moliyaviy xisobotlar va shu'ba korxonalariga qilingan investitsiyalar hisobi” nomli BHMS talablariga rioya qilinganligini aniqlaydi.

### **3.2. Ustav, qo'shilgan va rezerv kapitali auditini tartibga soluvchi meyoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish**

Ustav, qo'shilgan va zahira kapitallarini shakllanishi va harakati, shuningdek zahiralarni tashkil etish va foydalanish auditini o'tkazishda auditor quyidagi asosiy qujjatlarga amal qilishi lozim.

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi 2002-yil 30-avgust holatiga o'zgarishlar bilan. 1996-yil 29-avgustda 257-1-sonli O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qarori bilan 1997-yil 1-martdan kuchga kiritilgan.

2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi 2002-yil 9- may holatiga o'zgarishlar bilan. 1997-yil 24-aprelda 391-6-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tasdiqlangan.

3. “Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (keyingi o'zgarishlar va qo'shimchalar bilan). 1996-yil 26-aprelda qabul qilingan.

4.”Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2001-yil 6-dekabrda qabul qilingan

5. “Ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi qonuni (keyingi o’zgarishlar va qo’shimchalar bilan). 2001 -yil 12-mayda qabul qilingan.

6. “Buxgalteriya hisobi to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuni. 1996-yil 30-avgustda qabul qilingan

7. “Auditorlik faoliyati to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuni. 2000- yil 26- mayda qabul qilingan.

8. O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002-yil 7-fevraldagi 31-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan “Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to’ldirish qoidalari” (keyingi o’zgarishlar va qo’shimchalar bilan).

9. O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat Soliq Qo’mitasi tomonidan 2002- yil 17- aprelda 51 va 002-40-sonli Qarori bilan qabul qilingan “Amaldagi qonunchilik bilan belgilangan muddatlarda Nizom kapitalarini (jamg’armalarini) shakllantirmagan xorijiy investitsiyalarga ega bo’lgan korxonalaridan soliqlarni undirib olish tartibi to’g’risidagi Nizom”.

10. O’zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Davlat Mulk Qo’mitasi va Davlat Soliq Qo’mitasi tomonidan 2002-yil 25-martda 47, 10-1-48, 2002-33-sonli Qarori bilan qabul qilingan “Xo’jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan davlat tasarrufidagi (davlat ulushi) aksiyalar bo’yicha dividendlarni hisoblash, to’lash va maqsadli foydalanish tartibi to’g’risida Nizom”.

11. O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2002-yil 9-sentyabrdagi 37-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan “Korxonalar moliyaviy-xo’jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasi”

12. O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998-yil 26-iyulda 17-07/06-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan “Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etishning kontseptual asosi”.

13.1-sonli “Hisob siyosati va moliyaviy hisobot” O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy andozasi (BHMA).O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan 1998-yil 26- iyulda 17-07/86-son bilan tasdiqlangan.

14. 19-sonli “Inventarlashni tashkil etish va o‘tkazish” O‘zbekiston Respublikasi BHMSsi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan 1999-yil 19-oktyabrda EG/17-19-2075-son bilan tasdiqlangan.

15.O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va Davlat Soliq Qo‘mitasi tomonidan 2002-yil 14-yanvarda 15, 2002-12-son bilan tasdiqlangan “Huquqiy shaxslar daromad (foyda)lari bo‘yicha soliqlarni hisoblash va byudjetga to‘lash tartibi to‘g‘risida Nizom”.

16.Dastlabki hujjatlar va hisob registrlari.

Nizom, qo‘shilgan, zahira kapitali va zahiralarni shakllanishi va harakatining auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uchun auditor (auditorlik tashkiloti) tomonidan quyidagi asosiy hujjatlardan foydalaniladi:

- korxonalar Nizomi;
- ta‘sis shartnomasi;
- ta‘sischilar majlislarining bayonnomalari;
- davlat ro‘yxatidan o‘tganligi to‘g‘risidagi guvohnoma;
- korxonalarni xususiylashtirish va aksionerlash bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlar;
- statistika, davlat soliq idoralari, nafaqa jamg‘armasi, bandlik jamg‘armasi, ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi idoralarida ro‘yxatdan o‘tganligi to‘g‘risida guvohnomalar;
- bank xizmati ko‘rsatish to‘g‘risida guvohnoma;

ta'sis hujjatlariga kiritilgan va ro'yxatga olingan o'zgarishlar;

- emissiya prospekti;

- aktsiyadorlik jamiyatlari uchun aktsiyadorlar reestri; aktsiyadorlarning yillik majlisi bayonnomalaridan ko'chirma;

- aktsiyadorlar, ta'sischilarning majlisi bayonnomalaridan ko'chirma;

- direktorlar Kengashi majlislarining qarorlaridan ko'chirma;

- ijro direksiyasining buyruqlari va farmoyiyullari;

- ma'lum bir faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyalar varuxsatnomalar;

- ta'sischilar va aktsiyadorlar bilan yozishuvlar; ichki Nizomlar;

- Nizom kapitaliga ta'sischilar tomonidan o'z ulushlarini pul, natura, nomoddiy shaklda yoki qimmatli qog'ozlar ko'rinishida kiritilganini tasdiqlovchi hujjatlar (bank ko'chirmalari, kirim kassa orderlari, Nizom kapitaliga ulush sifatida natura ko'rinishida taqdim etilgan mol-mulkni kirim qilish to'g'risida dalolatnomalar va boshqalar); Nizom kapitaliga natura va nomoddiy ko'rinishida kiritiladigan ulushlarning baholash uslubi;

- xo'jalik yurituvchi sub'ekt davlat ro'yxatidan o'tganidan keyingi boshlang'ich faoliyat davri bo'yicha hisobot;

- yillik hisobot.

Korxonalar va tashkilotlarda investitsiyalangan xususiy va qarzga olingan kapitallar turli ko'rinishlarda harakat qiladi.

Korxonalar va tashkilotning xususiy kapitali quyidagi shakl bo'yicha ifodaladi:

**1. Ustav fondi.** Ustav fondi korxonaning tashkil topishi va xo'jalik faoliyatining boshlang'ich bosqichi uchun yo'naltirilgan xususiy kapitalning dastlabki summasini tavsiflaydi.

Uning miqdori ustav bilan belgolanadi. Tashkiliy-huquqiy ko'rinishdagi bir qator savdo korxonalarini uchun (mas'uliyati cheklangan jamiyat, hissdorlik jamiyati) ustav fondining minimal qiymati qonun yo'li bilan tartibga solib turiladi.

**2. Zahira fondi.** Zahira fondi o'zida korxonaning xo'jalik faoliyatining ichki sug'urtasi uchun mo'ljallangan korxonaning xususiy kapitalning zahiralangan qismini ifodalaydi. Zahira fondining miqdorini tashkiliy hujjatlarda belgilab qo'yiladi. Zahira fondini shakllantirish korxonaning daromadi hisobidan amalga oshiriladi (foydaning minimal miqdorini zahira fondiga o'tkazish qonun yo'li bilan tartibga solinadi).


**3. Maqsadli moliyaviy fondlar.** Maqsadli moliyaviy fondlarga yig'ilgan moliyaviy vositalarni kelgusida maqsadli sarflash maqsadida savdo korxonasi shakllantirilgan turli maxsus fondlar kiradi. Bu fondlar tarkibida amortizatsiya fondi, mehnatni rag'batlantirish fondi, ishlab chiqarishni rivojlantirish fondi va boshqa bir qator fondlar vositalarining shakllanish va qo'llanilish tartibi savdo korxonasi ustavi va boshqa tashkiliy hujjatlari bilan tartibga solib turiladi.

**4. Taqsimlanmagan foyda.** Taqsimlanmagan foyda o'zida foydaning taqsimlangan, ishlatilgan qismi va olingan foydaning umumiy summasi o'rtasidagi farqni ifodalaydi. O'zining iqtisodiy tarkibiga ko'ra savdo korxonasi xususiy moliyaviy vositalarining zahira ko'rinishlaridan biri hisoblanadi.

**5. Xususiy kapitalning boshqa shakllari.** Xususiy kapitalning boshqa shakllariga balans passivining birinchi bo'limida ko'rsatiladigan mulk uchun hisob-kitob (uni ijaraga berilgan holatda), ishtirokchilar bilan hisob-kitob (umumiy daromaddan ularga foiz yoki dividend to'lash holatida) va boshqalar kiradi.

### **3-jadval**

#### **Korxonaning kapital tarkibiy tuzilishi**



Yuqoridagi chizmada korxonada kapital tarkibiy tuzilishini maqullashtirish jarayonining asosiy bosqichlari tarkibi tasvirlangan.

O'zbekiston respublikasining qonunchiligiga ko'ra, mulkchilik turidan qat'iy nazar har bir korxonada, tashkilot va birlashmalar, aksiyadorlik jamiyatlari, ma'suliyati cheklangan jamiyatlar o'z hususiy kapitallarini shakllantirib borishlari zarur.

Hozirgi kunda O'zbekiston respublikasi qonunchiligiga ko'ra, Nizom fondida chet ellik sarmoyadorlar tomonidan kiritilgan investitsiya bo'lsa,

Savdo korxonasi kapitalining moliyaviy tarkibini maqullashtirish jarayoni quyidagi bosqichlar bo'yicha amalga oshiriladi. Korxonada va tashkilotlar hususiy kapitalni ko'paytirish yo'llarini yaxshilashda avvalambor korxonada buxgalteri va iqtisodchisi tomonidan korxonada mavjud kapitalni tahlil maqsadga muvofiqdir.

**1. Korxonada kapitalni tahlil qilish.** Bu tahlilning asosiy maqsadi bo'lib rejalashtirishgacha bo'lgan davrda kapital hajmi va tarkibining

dinamik harakatini va ularning kapitaldan foydalanish samaradorligi va moliyaviy mustaqilligiga ta'sirini aniqlashdan iborat.

Bunda asosan korxonada, tashkilot iqtisodchisi tomonidan kapitalning umumiy hajmi va asosiy tarkibiy qismlari o'sish sur'atlarini sotiladigan tovarlar hajmi o'sish sur'atlari bilan taqqoslagan holda ko'rib chiqiladi; xususiy va qarzga olingan kapitalning o'zaro munosabatlari va uning harakatlari aniklanadi; qarzga olingan kapital tarkibida uzoq va qisqa muddatli moliyaviy majburiyatlar o'rtasidagi o'zaro munosabat tadqiq etiladi; muddati o'zgartirilgan moliyaviy majburiyatlarning miqdori aniqlanadi va uzaytirish sabablari o'rganiladi.

## **2. Kapitalga bo'lgan umumiy talabni aniqlash.**

Savdo korxonasining kapitalga bo'lgan umumiy talabi uning aylanma va aylanishdan tashqaridagi aktivlarining (ushbu ko'rsatkichlarni hisoblash usullari ilgariroq ko'rib chiqilgan) rejalashtirish summasini aniqlashga asoslandi. Bu aktivlarning summasi savdo korxonasining rejalashtirilgan davrda kapitalga bo'lgan umumiy talabni ifodalaydi.

**3. Aktivlarni moliyalashtirish siyosati kriteriysi bo'yicha kapital tarkibiy tuzilishini maqbullashtirish.** Kapital tarkibiy tuzilishini maqbullashtirishning ushbu usuli korxonada aktivlarini turli tarkibiy qismlarini moliyalashtirish manbalarini differentsial tanlash jarayoni bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu maqsadlarda savdo korxonasining barcha aktivlari mana, shu uch guruhga bo'linadi:

- a) aylanishdan tashqaridagi aktivlar.
- b) aylanma aktivlarning doimiy qismi.

U o'zida tovar aylanishining mavsumiy va boshqa tebranishlariga tobe bo'lmagan va mavsumiy saklanish, zudlik etkazib berish va maqsadli belgilangan tovar zahiralari shakllanishi bilan bog'liq bo'lmagan aktivlar miqdorining o'zgarmas qismini ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, u korxonada joriy xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan aylanma aktivlarning kelmaydigan minimumi sifatida qaraladi.

d) Aylanma aktivlarning o'zgaruvchan qismi.

U o'zida tovarlar sotilishi hajmining mavsumiy o'sishi savdo korxonasi faoliyatining alohida davrlarida mavsumiy saqlash, zudlik bilan etkazib beriladigan va maqsadli belgalangan tovar zahiralari shakllantirish zaruriyati bilan bog'liq bo'lgan ularning asosiy qismini ifodalaydi. Aylanma aktivlarning ushbu o'zgaruvchan qismi tarkibida ularga bo'lgan maksimal va o'rtacha talab ajratiladi.

#### **4.Savdo korxonasi aktivlarining turli guruhlarini moliyalashtirishga bo'lgan uch asosiy yondashuv mavjud.**

a) Aktivlarni moliyalashtirishga bo'lgan konservativ yondashuv xususiy va uzoq muddatli qarzga olingan kapital hisobidan aylanishdan tashqaridagi aktivlar, aylanma aktivlarning doimiy qismi va aylanma aktivlar o'zgaruvchan qismining yarmi moliyalashtirilishi lozimligini iazarda tutadi. Aylanma aktivlar o'zgaruvchan qismining ikkinchi yarmi qisqa muddatli qarzga olingan kapital hisobidan moliyalashtirilishi shart. Aktivlarni moliyalashtirishning bunday modeli korxonaning rivojlanishi jarayonida uning yuqori darajadagi moliyaviy mustahkamligini ta'minlaydi.

b)Aktivlarni moliyalashtirishga bo'lgan mo'tadil, ya'ni o'rtacha yondashuv xususiy va uzoq muddatli qarzga olingan kapital hisobidan aylanishdan tashqaridagi aktivlar va aylanma aktivlarning doimiy qismi moliyalashtirilishi lozimligini va shu vaqtning o'zida qisqa muddatli qarzga olingan kapital hisobidan - aylanma aktivlar o'zgaruvchan qismining butun hajmi moliyalashtirilishi lozimligini nazarda tutadi.

Aktivlarni moliyalashtirishning bunday modeli korxonada moliyaviy mustahkamligini maqbul darajasini ta'minlaydi.

d) Aktivlarni moliyalashtirishning agressiv yondashuvi xususiy va uzoq muddatli qarzga olingan kapital hisobidan faqatgina aylanishdan tashqaridagi aktivlarni moliyalashtirilishi va ayni shu paytda hamma aylanma aktivlar qisqa muddatli qarzga olingan kapital (qoida bo'yicha: joriy aktivlar joriy majburiyatlar bilan qoplanishi shart) hisobidan moliyalashtirilishi lozimligini



nazarda tutadi. Aktivlarni moliyalash-tirishning bunday modeli savdo faoliyatini xususiy kapitalga minimal talab darajasida amalga oshirishga imkon bersada, korxonaga to'lov qobiliyati va moliyaviy mustahkamligini ta'minlashda jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi.

**5. Kapital tarkibiy tuzilishini qo'llash samaradorligi mezonini bo'yicha muqobillashtirish.** Ushbu samaradorlikning ko'rsatkichi sifatida xususiy kapitalning samaradorligi darajasi qabul qilinadi.

Uning xususiy va qarzga olingan qismlarining o'rtasidagi o'zaro turli xil munosabati sharoitida xususiy kapitalda foydalanish samaradorligini o'lchash uchun «moliyaviy leviridj» deb nomlanuvchi ko'rsatkich qo'llaniladi.

Xususiy moliyaviy resurslarning shakllanishini boshqarish o'zida kelgusi davrda savdo korxonasi rivojlanishi talablarga mos ravishda ularni turli manbalardan jalb qilishni ta'minlash jarayonini ifodalaydi. Ushbu boshqaruvning asosiy maqsadi korxonaga ishlab chiqarish rivojida o'zini o'zi moliyalashtirishning zaruriy darajasini shakllantirishdan iborat.

Xususiy moliyaviy resurslarning shakllanishini boshqarish jarayoni quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi.

**1. Rejalashtirishdan oldingi davrda xususiy moliyaviy resurslarni shakllanishini aniqlashtirish** Bunda, xususiy moliyaviy resurslarning shakllanish potentsialini va uning savdo korxonasi rivojlanish sur'atlariga mos tushishini ko'rsatib berishdan iboratdir.

So'ngra xususiy moliyaviy resurslar umumiy hajmining o'sishi, xususiy kapital o'sishi sur'atlarining savdo korxonasi tovar aylanishi va aktivlarining o'sishi sur'atlariga mos kelishi rejalashtirishdan oldingi davrda korxonaga moliyaviy resurslari shakllanishining umumiy hajmida xususiy resurslar solishtirma og'irligining o'sish sur'atlari tadqiq etiladi, xususiy moliyaviy resurslar shakllanishining manbalari ko'rib chiqiladi. Birinchi navbatda xususiy moliyaviy resurslar shakllanishining ichki va tashqi manbalari o'rtasidagi o'zaro munosabat o'rganiladi;

SHunday so'ng yuqori ko'rsatib o'tilgan har bir guruh miqyosida ularning shakllanishidagi aniq manbalarning solishtirma og'irligi ko'rib chiqiladi, har xil manbalar hisobidan xususiy kapitalni jalb qilish qiymati hisoblanadi.

## **2. Xususiy moliyaviy resurslarga bo'lgan umumiy talabni aniqlash.**

## **3. Ichki manbalar hisobidan xususiy moliyaviy resurslarni maksimal hajmda jalb qilishni ta'minlash.**

Xususiy moliyaviy resurslar shakllanishida ichki, tashqi manbalarga murojaat qilishdan oldin, ularni ichki manbalar hisobida shakllantirishning barcha imkoniyatlari amalga oshirilishi shart. Savdo korxonasi xususiy moliyaviy resurslari shakllanishining asosiy rejalashtirilgan ichki manbalari sof daromad summasi va amortizatsiya ajratmalari bo'lganligi uchun birinchi navbatda, ushbu ko'rsatkichlarni rejalashtirish jarayonida ularning turli zahiralardan o'sish imkoniyatlarini ko'zda to'tish lozim.

Keyingi yillarda savdo korxonalariga ushbu manba hisobidan xususiy moliyaviy resurslarni shakllantirish imkoniyatini oshiruvchi asosiy vositalar aktiv qismini tezkor amortizatsiyalash usulini qo'llashga ruhsat etilayapti. Biroq, alohida ko'rinishdagi asosiy vositalarni tezkor amortizatsiyasini o'tkazish jarayonida amortizatsiya ajratmalari summasining o'sishi mos ravishda sof daromad summasini kamayishiga olib kelishini yoddan chiqarish lozim. Shuning uchun, ichki manbalar hisobidan xususiy moliyaviy resurslarni yuksaltirish uchun zahiralarni qidirib topishda quyidagi mezonlardan foydalanib ularning umumiy summasi yig'indisini maksimalashtirish zaruriyatidan kelib chiqish lozim:

$$SD + AA \geq XMR_{maks}$$

Bu yerda:

**Sd** - korxonaning rejalashtirilgan sof daromad summasi;

**AA**- amortizatsiya ajratmalarining rejalashtirilgan summasi;

**XMR<sub>maks</sub>** - ichki manbalar hisobidan shakllantirilgan xususiy moliyaviy resurslarning maksimal summasi;

#### **4. Tashqi manbalardan xususiy moliyaviy resurslarni zaruriy hajmini jalb qilishni ta'minlash.**

Tashqi manbalardan xususiy moliyaviy resurslarni jalb qilingan hajmi ularning ichki manbalardan moliyalashtirish hisobidan shakllan-tirishga imkon bo'lmagan qismni ta'minlashga mo'ljallangan. Agarda, rejalashtirilgan davrda ichki manbalar hisobidan jalb qilingan xususiy moliyaviy resurslar summasi ularga bo'lgan umumiy talabni to'laligicha ta'minlay olsa, tashqi manbalar hisobidan bu resurslarni jalb qilishga zaruriyati qolmaydi.

Tashqi manbalar hisobidan xususiy moliyaviy resurslarni jalb qilishga bo'lgan talab quyidaga formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\mathbf{XMR}_{\text{tashqi}} = \mathbf{T}_{\text{xmr}} - \mathbf{XMR}_{\text{ichki}}$$

$\mathbf{XMR}_{\text{tashqi}}$  - tashqi manbalar hisobidan xususiy moliyaviy resurslarni jalb qilishga bo'lgan talab;

$\mathbf{T}_{\text{xmr}}$  - savdo korxonasi rejalashtirilgan davrda xususiy moliyaviy resurslarga bo'lgan umumiy talabi;

$\mathbf{XMR}_{\text{ichki}}$  - ichki manbalar hisobidan jalb qilish rejalashtirilgan xususiy moliyaviy resurslar summasi;

Tashqi manbalar hisobidan xususiy moliyaviy resurslarga bo'lgan talabni qondirishni ta'minlash ko'shimcha hissadorlik kapitalini (korxonaga egalarning va boshqa investorlarning) jalb qilish hisobidan, aksiyalarning qo'shimcha emissiyasi yoki boshqa manbalar hisobidan rejalashtiriladi.

#### **5. Xususiy moliyaviy resurslarni shakllantiruvchi ichki va tashqi manbalarning o'zaro munosabatlarini maqbullashtirish.**

Ushbu maqbullashtirish jarayoni quyidagi ikki kriteriyalarga asoslanadi:

a) xususiy moliyaviy resurslarni jalb qilishining minimal yig'indi qiymatini ta'minlash. Agar tashqi manbalar hisobidan xususiy moliyaviy resurslarni jalb qilish qiymati qarzga olingan vositalarning rejalashtirilgan qiymatidan yuqori bo'lsa, xususiy resurslarni shakllantirishning bunday usulidan voz kechish maqsadga muvofiqdir;

b) korxonadan uning boshlang'ich tashkilotchilarini boshqaruvchilik imkoniyatlarini saklab qolishni ta'minlash. Tomonlar investitsiyalarining vositalari hisobidan qo'shimcha hissadorlik yoki aksionerlik kapitalining o'sishi bunday boshqaruvning yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

Xususiy moliyaviy resurslarni shakllantirish bo'yicha ishlab chiqilgan rejaning samaradorligi kelgusi davrdagi korxonaning rivojini o'zini o'zi moliyalashtirish koeffitsienti yordamida baholanadi. Uning darajasi qo'yilgan maqsadga mos tushishi shart.

Doimiy ravishda qarzga olingan vositalarni jalb qilib turmasdan korxonaning xo'jalik faoliyatini samarali tashkil qilish mumkin emas. Ushbu vositalarni qo'llash tovarlar sotilish hajmini va shakllantirilgan tovar zahiralarini sezilarli darajada kengaytirishga, xususiy kapitaldan yanada samaraliroq foydalanishni ta'minlashga, turli maqsadli fondlar tuzilishini tezlashtirishga, oxir oqibatda - korxonaning bozor qiymatini oshirishga imkon beradi.

Har qanday biznesning boshlang'ich nuqtasini xususiy kapital tashkil etsada, savdo korxonalarida qarzga olingan vositalar hajmi xususiy kapital hajmiga ko'ra sezilarli darajada ko'proq bo'ladi.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Buxgalteriya hisobi fanidan ma'lumki korxonaning, tashkilot va firmalarni moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash manbai bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- O'z mablag'lar manbai;
- Qarz mablag'lari.

Sobiq ittifoq davrida esa bu mablag'lar manbaiga byudjetdan ajratmalar ham kirgan. Lekin bozor iqtisodiyotiga o'tganimizdan keyin bu mablag'lar manbai bekor qilingan. Chunki bu manbaning yo'q qilinishi Respublikamizdagi boqimandalik tizimini tugatishni ta'minladi.

Endilikda esa yuqorida sanab o'tgilganlar korxonalarini mablag'lar bilan ta'minlash manbai bo'lib kelmoqda. Korxonalar, tashkilot yoki firma ochilish davrida o'z mablag'larini belgilab olishi lozim.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir korxonalar o'z moliyaviy ehtiyojlarini o'zi mustaqil qondirishi mumkin. Resurslarni ta'minlash manbai bo'lib, uning foydasi, qimmatbaho qog'ozlarini sotishdan kelgan tushum, aksionerlarning pay va boshqa to'lovlari, yuridik va jismoniy shaxslarning pay va boshqa to'lovlari hamda qonundan tashqari bo'lmagan holda kirim qilingan mablag'lar kiradi. Bunday asosda kiritilgan mablag'lar korxonalar tashkilotlar uchun xususiy kapital deb qaraladi. Xususiy kapital hisobi bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim ahamiyatga ega bo'lib, u korxonalarining o'z qudrat darajasini qay darajada ekanligini bildiradi.

Hususiy kapital qiymatini ko'paytirishning eng asosiy omili bo'lib korxonalarining hisobot yilida olgan sof foydasi hisoblanadi. Faoliyat ko'rsatuvchi tashkilotlar shu omil hisobiga o'z jamg'armalarini oshirishlari eng optimal variant deb qaraladi. Sababi, bu omilning o'zgarishi faqatgina korxonalarining o'ziga bog'liq bo'lib, uning har tomonlama to'liq imkoniyatlarini ishga solib faoliyatini boshlashini taqozo etadi. Bundan tashqari boshqa ko'rsatkichlarning o'zgarishi ham ushbu omil bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Mazkur vazifalarni hal etishda korxonalar va tashkilotlar «Mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hamda moliyaviy natijalarni aniqlash tartibi to'g'risidagi Nizom»ni chuqur bilishlari lozim.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqqan holda quyidagilarni taklif qilaman:

- Korxonalar va tashkilotlarda ustav, qo'shilgan va rezerv kapitali hisobini xalqaro andozalar asosida olib borish;
- Korxonalarda moliyaviy hisobot xalqaro standartlarining kapital konsepsiyasini qo'llash;
- Korxonalar va tashkilotlar o'zlarining sof foydasi o'sishini ta'minlash;

- Korxonalar va tashkilotlarda "Hususiy kapital" to'g'risidagi 5-shakl Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etishda dasturiy ta'minotlardan foydalanish.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari va Prezident farmonlari.**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston», 2002 yil.

2. O'zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida» gi Qonuni. 1996 yil 30 aprel.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida”gi Farmoni. – T. “Xalq so'zi” gazetasi. 2003 yil, 25 mart;

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish Kontsepsiyasi to'g'risida”gi Farmoni. 2003 yil 27 oktyabr.

## **II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning asarlari.**

5. Karimov I.A. «Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, marralar sari harakat qilishimiz lozim», «Xalq so'zi» gazetasi 11.02.2006 yil.

6. Karimov I.A. «Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil xarakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush tarzini yaratish asosiy vazifamizdir», «Xalq so'zi» gazetasi 13.02.2007 yil.

7. Karimov I.A. «Mamlakatimiz taraqqiyotining qonuniy asoslarini mustahkamlash faoliyatimiz mezonini bo'lishi darkor», «Xalq so'zi» gazetasi 25.02.2008 yil.

8. Karimov I.A. «Jahon-moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» - T.: «O'zbekiston», 2009 yil. 56 bet.

9. Karimov I.A. “Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” – T.: “O'zbekiston”, 2010.

10. I.A. Karimov “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi”, Xalq so'zi gazetasi 22 yanvar 2011 yil 16-soni.

11. I.A.Karimov. 2012 yil vatanimizni yuksak bosqichlarga ko'taradigan yil bo'ladi. T.: O'zbekiston, 2012. – 36 b.

12. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko’lamli islohotlar va modernizatsiya yo’lini qat’iyat bilan davom ettirish. Toshkent oqshomi, 21.01.2013 y.

### **III. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining meyoriy huquqiy hujjatlari.**

13. Mahsulot (ish, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllanish tartibi to’g’risidagi Nizomini tasdiqlash to’g’risidagi O’zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli Qarori.

14. Buxgalteriya hisobining milliy standartlari. №0-23. T.: - 1998-2002 yil.

### **IV. Darsliklar.**

15. A. Karimov va boshqalar. «Buxgalteriya hisobi». T.: «Sharq» NMAK, 2004 yil. 591 bet.

16. O. Bobojonov «Moliyaviy hisob». – T.: «Sharq» NMAK, 2000 yil. 476 bet.

17. A. Abdullaev «Moliyaviy hisob».– T.: «Fan va texnologiya», 2005 yil. 286 bet.

18. I. Ochilov «Moliyaviy hisob». – T.: «Iqtisod va moliya», 2006 yil. 396 bet.

19. A. Vahobov, A. Ibragimov «Moliyaviy tahlil». – T.: «Sharq» NMAK, 2002 yil.

20. Y. Itkin, A.S. Sotiboldiev «Zamonaviy buxgalteriya hisobi». T.: 2002 yil.

### **V. O’quv qo’llanma.**

21. N. Qo’ziev “Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari”, T.: “Iqtisod-moliya”, 2007.



22. I.T. Abdukarimov «Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari». – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1999 yil. 3-son.
23. A.Po'latov va boshqalar «Boshqaruv hisobi», T.: TIMI, 2007 yil.
24. B. Xasanov «Boshqaruv hisobi», T.: TIMI, 2005 yil.
25. Z.S. Abdullaev va boshqalar «Iqtisodiyotda axborot texnologiyalar», T.: TIMI, 2007 yil. 242 bet.
26. Y. Itkin i dr. Buxgalterskiy uchetskiy usloviyax rinochnoy ekonomiki Uzbekistana. Tom-1,2. Tashkent-2000.
27. R. Do'stmurodov “Buxgalteriya hisobi nazariyasi”, T.: “Alisher navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi” nashriyoti, 2007 yil.
28. Pardaev A. «Boshqaruv hisobi».- T.: Akademiya, 2002.
29. Abdug'aniev A.A. Boshqaruv hisobini tashkil etish muammolari, ularning echimlari. - T.: TIMI nashr. 2003 y.

#### **VI. Internet saytlari.**

30. [www.buhgalteriya.com.ua](http://www.buhgalteriya.com.ua)
31. [www.referat.uz](http://www.referat.uz)
32. [www.glavbukh.ru](http://www.glavbukh.ru)
33. [www.saldo.ru](http://www.saldo.ru)